ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyani ilğor pedagogik yondaşuvlar asosida taşkil etiş

USLUBIY QÖLLANMA

umumiy örta ta’lim maktablari, akademik litseylar,
texnikumlar va oliy ta’lim taşkilotlari uçun

TOŞKENT – 2026

SVR6417

ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyani ilğor pedagogik yondaşuvlar asosida taşkil etiş

USLUBIY QÖLLANMA

(umumiy örta ta’lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlar va oliy ta’lim taşkilotlari uçun)

TOŞKENT – 2026

Tuzuvçilar:

Kamalov Azamat Jamaloviç – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent, Ta’lim va ilm-fan vazirligining Ta’lim taşkilotlarida tarbiyaviy işlarni muvofiqlaştiriş boşqarmasi boşliği;

Esanova Zamira Normurotovna – Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor, Toşkent davlat yuridik universitetining ilmiy işlar va innovatsiyalar böyiça prorektori;

Xamidova Maxbuba Alijanovna – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toşkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S. Vosikova nomidagi akademik litsey kafedra mudiri;

Ravşanov Sobirjon Markayeviç – Kasbiy ta’limni rivojlantiriş instituti boş mutaxassisi;

Daminov Asror Mahmayusupoviç – texnika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent, Ta’lim va ilm-fan vazirligi boş mutaxassisi.

Taqrizçilar:

Gulyamova Gulnora Yakubovna – Toşkent davlat yuridik universiteti Özbek tili va adabiyoti kafedrasi professori;

Ramazonov Nodir Normurodoviç – Toşkent davlat yuridik universiteti kafedra mudiri, dotsent;

Muxamedov Xaydarali Meyliyeviç – Toşkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasi professori, yuridik fanlar nomzodi;

Qoraxonova Lobarxon Musaxonovna – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Mahalla – oila – maktab hamkorligi” ilmiy tadqiqot bölimi mudiri, pedagogika fanlari doktori.

Ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyani ilğor pedagogik yondaşuvlar asosida taşkil etiş

Uslubiy qöllanma (umumiy örta ta’lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlar va oliy ta’lim taşkilotlari uçun). – Toşkent, 2026.

Uslubiy qöllanma Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-apreldagi 202-son qarori bilan tasdiqlangan “2026–2027-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltiriş böyiça çora-tadbirlar dasturi”ning 72-bandi ijrosi doirasida tayyorlandi. Unda umumiy örta ta’lim maktablari, akademik litseylar, texnikumlar va oliy ta’lim taşkilotlarida huquqiy ta’lim va tarbiyani kompetensiyaviy, amaliyotga yönaltirilgan yondaşuvlar asosida taşkil etiş böyiça ilmiy-metodik tavsiyalar, tayyor dars işlanmalari, keyslar, baholaş vositalari, QR-kod orqali oçiladigan raqamli resurslar va joriy etiş yöl xaritasi berilgan.

Uşbu uslubiy qöllanma ta’lim muassasalari rahbarlari va ularning ma’naviy-ma’rifiy işlar böyiça örinbosarlari, “Davlat va huquq asoslari”, “Tarbiya” va huquqiy fanlar öqituvçilari, sinf rahbarlari, guruh kuratorlari, psixologlar, tarbiyaçilar, tyutorlar va pedagoglar hamda malaka oşiriş muassasalari uçun möljallangan.

Mazkur uslubiy qöllanma Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining 2026-yil 30-oktabrdagi 9-sonli Kengaş bayonnomasi bilan naşrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Qöllanmadan qanday foydalaniş kerak **5**

Kiriş **6**

1. Normativ-huquqiy asoslar **7**
1.1. Topşiriqning manbasi 7
1.2. Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar 7
1.3. Ta’lim tizimidagi amaldagi şaroit 8

2. Huquqiy ta’lim va tarbiyaning konseptual asoslari **9**
2.1. Asosiy tuşunçalar 9
2.2. Maqsad 9
2.3. Tamoyillar 9
2.4. Uzluksizlik: bosqiçlar böyiça kompetensiyalar 10
2.5. Uzluksizlikni körinadigan qiliş: “Huquqiy pasport” va “Huquqiy köprik” 10
2.6. Alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun moslaştiriş 11

3. Ilğor pedagogik yondaşuvlar va metodlar **12**
3.1. Keys-stadi 12
3.2. Öquv sud jarayoni 12
3.3. Debat va tuzilmaviy munozara 13
3.4. Loyihaga asoslangan ta’lim 13
3.5. Rolli öyin va simulyatsiya 13
3.6. Mediatsiya va tiklovçi adolat doirasi 13
3.7. Teskari sinf (flipped classroom) 13
3.8. Köça huquqi (Street Law) 14
3.9. Yuridik klinika 14
3.10. Geymifikatsiya va raqamli resurslar 14

4. Umumiy örta ta’lim maktablari uçun tavsiyalar **15**
4.1. Bosqiç xususiyatlari 15
4.2. Sinflar böyiça mazmun va metodlar 15
4.3. Fanlararo integratsiya 15
4.4. Huquqiy sinflar uçun qöşimça tavsiyalar 16
4.5. Maktab hayoti orqali tarbiya 16
4.6. Ota-onalar bilan işlaş 16
4.7. Baholaş 16

5. Akademik litseylar uçun tavsiyalar **18**
5.1. Bosqiç xususiyatlari 18
5.2. Maqsadli natijalar 18
5.3. Mazmun va metodlar 18
5.4. Tarbiyaviy işlar 18
5.5. Baholaş 19

6. Texnikumlar uçun tavsiyalar **20**
6.1. Bosqiç xususiyatlari 20
6.2. Maqsadli natijalar 20
6.3. Mutaxassislikka boğlangan mazmun 21
6.4. Tavsiya etiladigan metodlar 22
6.5. Iş beruvçilar bilan hamkorlik 22
6.6. Tarbiyaviy işlar 22
6.7. Baholaş 23

7. Oliy ta’lim taşkilotlari uçun tavsiyalar 24
7.1. Bosqiç xususiyatlari 24
7.2. A. Sohaga oid huquqiy kompetensiya 24
7.3. B. Akademik muhit va talaba huquqlari 24
7.4. V. Yuridik va pedagogik yönalişlar 24
7.5. Tarbiyaviy işlar 25
7.6. Baholaş 25

8. Tarbiyaviy va taşqi hamkorlik işlari, raqamli resurslar 26
8.1. Hamkorlik doirasi 26
8.2. Yillik tadbirlar taqvimi (namuna) 26
8.3. Raqamli resurslar 27
8.4. Ta’lim oluvçini faol iştirokçiga aylantiruvçi şakllar 27
8.5. Zamonaviy raqamli muhitga moslaşiş 27

9. Pedagog kadrlar tayyorgarligi 29
9.1. Tayyorgarlik şakllari 29
9.2. Öqituvçining huquqiy namunasi 29
9.3. Pedagog uçun öz-özini baholaş çek-listi 29

10. Samaradorlikni baholaş va monitoring 31
10.1. Körsatkiçlar 31
10.2. Maqsadli qiymatlar (tavsiya sifatida, 2027-yil oxirigaça) 31
10.3. Monitoring tartibi 31

Xulosa 32

Ilovalar 33
1-ilova. Dars işlanmalari namunalari 33
2-ilova. Keyslar banki (namuna) 36
3-ilova. Amaliy topşiriqni baholaş rubrikasi 38
4-ilova. Huquqiy munosabat sörovnomasi (anonim, 8-sinfdan boşlab) 39

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar röyxati 40

SVR6417

Qöllanmadan qanday foydalaniş kerak

Foydalanuvçi	Qaysi bölimlardan foydalanişi kerak
Muassasa rahbari, örinbosar	1, 2 va 10-bölimlar hamda öz ta’lim bosqiçiga oid bölim (4–7-bölimlar)
Huquq va tarbiya fanlari öqituvçisi	3-bölim (metodlar), öz bosqiçiga oid bölim, 8.4–8.5-bandlar (ijodiy va raqamli vositalar), 1–4-ilovalar
Sinf rahbari, kurator, tarbiyaçi	8-bölim va öz bosqiçiga oid bölimning tarbiyaviy qismi
Malaka oşiriş muassasasi	3 va 9-bölimlar

Har bir ta’lim bosqiçi bölimi (4–7) bir xil tuzilişga ega: bosqiç xususiyatlari, maqsadli natijalar, mazmun yönalişlari, tavsiya etiladigan metodlar, tarbiyaviy işlar va baholaş. Şu sababli bu bölimlardan barça bosqiçlar uçun foydalaniş mumkin.

Atamalar. Qöllanmada “ta’lim oluvçi” atamasi barça bosqiçlar uçun umumiy ma’noda işlatiladi; “öquvçi” – umumiy örta ta’lim maktabi va akademik litsey ta’lim oluvçisi, “talaba” – texnikum va oliy ta’lim taşkiloti ta’lim oluvçisi; “OTT” – oliy ta’lim taşkiloti qisqartmasi.

Qöşimça elementlar. Har bir bölim oxirida asosiy ğoyalar “Yodda tuting” ramkasida qisqa berilgan. Bosqiç bölimlari (4–7) “Ilğor tajriba” ramkasi bilan tugaydi. Dars işlanmalari, keyslar va baholaş vositalarining elektron şakliga olib boruvçi QR-kodlar ilovalarda körsatilgan (8.5-band).

Kiriş

Huquqiy madaniyat bilimning özi bilan çeklanmaydi. U şaxsning qonunga hurmati, öz huquqini bilişi va uni qonuniy yöl bilan himoya qila olişi, boşqalar huquqini hurmat qilişi va xatti-harakati uçun javobgarlikni his etişida namoyon böladi. Amaliyotda aniqlanadigan asosiy muammo ham şu yerda. Öquvçi va talabalar qonun moddalarini sanab bera oladi, lekin kundalik vaziyatda (internetda firibgarlik, bulling, mehnat şartnomasisiz işlaş, iste’molçi huquqining buzilişi) qanday xatti-harakat qilişni bilmaydi.

Şu bois qöllanma uçta asosiy ğoyaga tayanadi:

1. **Bilimni haqiqiy natijaga aylantiriş.** Har bir maşğulot “nimani biladi?” degan savol bilan emas, “aniq vaziyatda nima qila oladi?” degan savol bilan rejalaştiriladi.
2. **Uzluksizlik.** Maktabdan oliy ta’lim taşkilotigaça mavzular takrorlanmaydi, balki çuqurlaşib boradi. Bola huquqidan – fuqarolik huquqiga, fuqarolik huquqidan – kasbiy huquqiy mas’uliyatga.
3. **Dars va tarbiya uyğunligi.** Huquqiy tarbiya faqat huquq darsida emas, muassasaning kundalik hayotida – içki tartib qoidalari, ta’lim oluvçilar özini özi boşqarişi, nizolarni hal qiliş tartibi orqali ham amalga oşiriladi.

SVR6417

1. Normativ-huquqiy asoslar

1.1. Topşiriqning manbasi

Rekvizit	Mazmuni
Hujjat	Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-apreldagi 202-son qarori ilovasi. 2026–2027-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltiriş böyiça çora-tadbirlar dasturi
Band	72-band, IV bölim “Huquqiy madaniyatni yuksaltirişning ilmiy asoslarini tadqiq etiş”
Vazifa	Barça darajadagi ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiya jarayonini yanada samarali taşkil etiş maqsadida ilğor pedagogik yondaşuvlarga asoslangan ilmiy-metodik tavsiyalar işlab çiqiş va ularni amaliyotga joriy etiş

Şu dasturning ta’lim muassasalariga tegişli boşqa bandlari qöllanmadagi tadbirlar bilan boğlangan:

Band	Tadbir	Qöllanmada
3	Yoşlarda huquqiy immunitetni şakllantiriş dasturi	2, 8-bölimlar
9	“Intellektual marafon” (“Huquq va mantiq çiziği” va boşqalar)	8-bölim
10	Maktablarda Konstitutsiya va qonunlar böyiça oçiq darslar va treninglar	4-bölim, 1-ilova
11	“Qonun oldida hamma teng” mavzusida ijodiy inşolar tanlovi	4, 8-bölimlar
12	Ta’lim muassasalarida “Huquqiy bilimlar oyligi” (dekabr)	8-bölim, 11-bölim
14	Köça huquqi (Street Law) loyihasi – öquvçi, talaba va yoş mutaxassislar bilan, çorakda bir marta ötkaziladi	3.8-band, 7, 8-bölimlar

1.2. Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar

1. Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yildagi tahriri).
2. Ta’lim töğrisidagi Qonun (2020-yil 23-sentabr, ÖRQ-637).
3. Bola huquqlarining kafolatlari töğrisidagi Qonun (2008-yil 7-yanvar, ÖRQ-139).
4. Özbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuçga kirgan) – texnikumlarda mehnat huquqi mavzulari uçun asosiy manba.
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi töğrisidagi Qonun (2014-yil 14-may, ÖRQ-371).
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltiriş tizimini tubdan takomillaştiriş töğrisida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni (jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltiriş konsepsiyasi).
7. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillaştirişga doir qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
8. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qiliş çora-tadbirlari töğrisida”gi 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni.
9. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini taşkil etiş töğrisida”gi 2026-yil 3-oktabrdagi PF-213-son Farmoni.

10. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etiş hamda voyaga yetmagan yoşlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oşiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarori (maktablarda “Huquqiy sinf” va “maktab – litsey – texnikum – universitet” tizimi).
11. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-apreldagi 202-son qarori.

1.3. Ta’lim tizimidagi amaldagi şaroit

Maktablarda “Davlat va huquq asoslari” fani 8–11-sinflarda öqitiladi. 11-sinfda u tanlov fanlar blokida va yakuniy attestatsiyada iştirok etadi.

2024/2025 öquv yilidan maktablarda “Huquqiy sinf”lar va huquqiy fanlarni çuqurlaştirib öqitiş orqali “maktab – litsey – texnikum – universitet” uzluksiz tizimi joriy etilgan.

2026/2027 öquv yilidan huquq fanidan biliş darajasini baholaş böyiça test sinovi va davlat namunasidagi sertifikat joriy etiladi. Bunda “Yurisprudensiya” va “Davlat va jamiyat boşqaruvi” bakalavrlariga qayta tayyorlovsiz maktabda “Davlat va huquq asoslari” fanidan dars berişga ruxsat etiladi (PF-232).

Har yili 1–7-dekabr kunlari ta’lim muassasalarida Konstitutsiya darslari va olimpiadalar ötkaziladi.

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - qöllanma Vazirlar Mahkamasining 202-son qarori 72-bandi ijrosi doirasida tayyorlangan;
> - huquqiy ta’limning asosini Ta’lim töğrisidagi Qonun, PF-5618-son Farmon va 532-son qaror taşkil etadi;
> - normaning amaldagi matni har doim rasmiy manba – lex.uz dan tekşiriladi.

SVR6417

2. Huquqiy ta’lim va tarbiyaning konseptual asoslari

2.1. Asosiy tuşunçalar

Tuşunça	Qöllanmadagi ma’nosi
Huquqiy ta’lim	Huquqiy bilim, tuşunça va könikmalarni maqsadli va tizimli beriş jarayoni
Huquqiy tarbiya	Qonunga hurmat, adolat tuyğusi, huquqiy mas’uliyat va qonuniy xatti-harakat odatini şakllantiriş
Huquqiy savodxonlik	Hayotiy vaziyatda kerakli normani topiş, tuşuniş va qöllaş imkoniyati
Huquqiy kompetensiya	Bilim, könikma va qadriyatlarning birgalikda namoyon bölişi: şaxs öz huquqini köra oladi, himoya qila oladi va burçini bajaradi
Huquqiy immunitet	Huquqbuzarlikka undaş, aldamçi taklif va bosimga qarşi tura oliş
Huquqiy madaniyat	Huquqiy kompetensiyaning şaxs va jamoa turmuş tarziga aylangan şakli

2.2. Maqsad

Ta’lim oluvçida yoşiga va ta’lim bosqiçiga mos huquqiy kompetensiyani şakllantiriş: huquq va burçlarini biladigan, ularni qonuniy yöl bilan amalga oşira oladigan, huquqbuzarlikni taniydigan va undan himoyalanadigan, qonun ustuvorligini şaxsiy qadriyat sifatida qabul qilgan fuqaroni tarbiyalaş.

2.3. Tamoyillar

Amaliylik. Har bir mavzu ta’lim oluvçining hayotida uçraydigan aniq vaziyat orqali oçiladi.

Yoşga moslik. Bola va ösmirning axloqiy rivojlaniş bosqiçlariga muvofiq ravişda mazmun asta-sekin murakkablaşadi.

Faoliyat orqali örganiş. Ta’lim oluvçi huquqiy rolni bajaradi: sudya, advokat, mediator, deputat, iste’molçi.

Fanlararo integratsiya. Huquqiy mazmun tarix, adabiyot, informatika, iqtisodiyot va mutaxassislik fanlariga ham kiritiladi.

Muassasa muhiti – namuna. Muassasaning özi huquqiy madaniyat namunasi bölişi kerak: adolatli baholaş, şaffof qoidalar, şikoyat qiliş imkoniyati.

Hamkorlik. Tarbiya “şaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – jamiyat” zanjirida uzluksiz taşkil etiladi.

Inklyuzivlik. Materiallar alohida ta’lim oliş zarur bölgan ta’lim oluvçilar uçun ham moslaştiriladi. Moslaştiriş yöllari 2.6-bandda berilgan.

2.4. Uzluksizlik: bosqiçlar böyiça kompetensiyalar

Bosqiç	Bilim	Könikma	Qadriyat va munosabat
Maktab, 1–4-sinf	Qoida va kelişuv nima. Bola huquqlari, xavfsizlik qoidalari	Yordam söraş. Yöq deya oliş. Nizoni söz bilan hal qiliş	Adolat, hurmat, begona narsaga tegmaslik
Maktab, 5–9-sinf	Huquq va burç. Voyaga yetmaganlar javobgarligi, raqamli xavfsizlik, Konstitutsiya asoslari	Manbadan norma topiş. Vaziyatni tahlil qiliş, bulling va firibgarlikni taniş	Javobgarlik, bağrikenglik, huquqbuzarlikka befarq emaslik
Maktab, 10–11-sinf, akademik litsey	Davlat tuzilişi, fuqarolik, mehnat, oila va iste’molçi huquqi asoslari hamda saylov	Hujjat tuziş (ariza, şikoyat), dalilli munozara, davlat xizmatlaridan foydalaniş	Fuqarolik faolligi, qonun ustuvorligiga işonç
Texnikum	Mehnat şartnomasi, mehnat muhofazasi, tadbirkorlik asoslari, kasbga oid normalar	Şartnomani öqib tahlil qiliş, iş joyidagi nizoni hal qiliş tartibi, raqamli davlat xizmatlari	Kasbiy vijdon, xavfsizlik madaniyati, korrupsiyaga moyilliksizlik
Oliy ta’lim	Sohaga oid tarmoq qonunçiligi, akademik xolislik, intellektual mulk, şaxsiy ma’lumotlar	Kasbiy vaziyatni huquqiy tahlil qiliş, hujjat loyihasini tayyorlaş, aholiga huquqiy tuşuntiriş	Kasbiy etika, ijtimoiy mas’uliyat, huquqiy madaniyatni tarqatuvçi roli

Har bir bosqiç avvalgisining natijasiga tayanadi. Masalan, texnikumda mehnat huquqi mavzusi maktabda ötilgan “huquq va burç” tuşunçasidan boşlanmaydi, balki talabaning amaliyot joyidagi aniq şartnomasi bilan işlaşdan boşlanadi.

2.5. Uzluksizlikni körinadigan qiliş: “Huquqiy pasport” va “Huquqiy köprik”

Uzluksizlik ğoyasi taşkiliy jihatdan mustahkamlanmasa, har bir yangi öqituvçi mazmunni qaytadan boşlaşga majbur böladi. Buning uçun ikki vosita taklif etiladi.

Huquqiy pasport. Ta’lim oluvçi 1-sinfdan oliy ta’limgaça olib yuradigan uzluksiz portfolio. Unda egallangan kompetensiyalar (2.4-band jadvaliga muvofiq), iştirok etilgan öquv sudi, debat, loyiha va Köça huquqi maşğulotlari, rubrika böyiça baholaş natijalari qayd etiladi. Pasport keyingi ta’lim bosqiçiga ötadi va yangi pedagogga mazmunni takrorlamasdan davom ettiriş imkonini beradi. Pasport elektron yoki bosma şaklda yuritiladi: ma’lumotni ta’lim oluvçining özi kiritadi, öqituvçi tasdiqlaydi. Şaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini saqlaş uçun pasportga faqat ta’lim oluvçining özi, uning ota-onasi (qonuniy vakili) va öqituvçi kirişiga ruxsat berilişi tavsiya etiladi.

Kutilayotgan natija: uzluksizlik ğoyasi taşkiliy jihatdan mustahkamlanadi.

Huquqiy köprik. Yuridik va pedagogik yönaliş talabalari maktab va texnikumlarda mentor sifatida maşğulot ötkazadi, litsey öquvçilari esa 8–9-sinflarda “tengdoş – tengdoşga” darslarini olib boradi. Bu şakl Köça huquqi va mentorlik faoliyati (3.8, 5.4, 6.4 va 7.4-bandlar) bilan boğlanadi.

Kutilayotgan natija: ta’lim bosqiçlari jonli muloqot orqali bir-biriga boğlanadi.

2.6. Alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun moslaştiriş

Alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar ham huquqiy ta’limning teng iştirokçisidir. Moslaştirişda huquqiy mazmun yengillaştirilmaydi: uning şakli, taqdim etiş usuli va baholaş yöli özgartiriladi. Moslaştiriş pedagog-psixolog, zarur hollarda defektolog (surdopedagog, tiflopedagog) va ota-onalar bilan kelişilgan holda amalga oşiriladi.

Ehtiyoj turi	Mazmun, metod va baholaşni moslaştiriş
Eşitişda nuqson	Keys va topşiriq matni yozma şaklda beriladi, videomateriallarga subtitr qöşiladi, zarur bölganda surdotarjimon jalb etiladi, debat yozma yoki savollar kartoçkasi şaklida ötkaziladi.
Körişda nuqson	Materiallar yirik şriftda, audio yoki ekran öquvçi dasturiga mos elektron şaklda beriladi (audio variantga QR-kod orqali çiqiladi), rolli öyinda ovozli rol tayinlanadi, baholaş oğzaki javob orqali ham amalga oşiriladi.
Tayanç-harakat apparati nuqsoni	Öquv sudi va simulyatsiya joyi tösiqsiz tanlanadi, harakat talab qilmaydigan rollarga (sudya, ekspert, kotib) tayinlanişi mumkin, qöşimça vaqt ajratiladi, topşiriqlar elektron şaklda qabul qilinadi.
Aqliy rivojlaniş va özlaştirişda qiyinçilik	Sodda va qisqa til, 5–7 jumlali keyslar, rasm va piktogrammalar, bosqiçma-bosqiç yöriqnoma, asosiy norma takrorlanadi, baholaş amaliy harakat va oğzaki javob böyiça, rubrika mezonlari soddalaştirilgan holda amalga oşiriladi.
Autizm spektri va nutq buzilişlari	Darsning aniq va oldindan ma’lum tuzilişi, tayyor iborali rolli kartoçkalar, şovqinli munozara örniga yozma yoki juftlikdagi iş, tinç joy imkoniyati, javob yozma yoki rasm şaklida qabul qilinadi.

Moslaştirilgan dars işlanmasidan namuna 1-ilovadagi 1.5-bandda berilgan. Rubrika va sörovnoma şakllari ham şu tamoyilda moslaştiriladi (3 va 4-ilovalar).

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - huquqiy ta’lim bilim beradi, huquqiy tarbiya esa qonunga hurmat va qonuniy xatti-harakat odatini şakllantiradi;
> - maşğulot “nimani biladi?” emas, “aniq vaziyatda nima qila oladi?” savoli asosida rejalaştiriladi;
> - mazmun bosqiçlar böyiça takrorlanmaydi, çuqurlaşib boradi; “Huquqiy pasport” va “Huquqiy köprik” uzluksizlikni ta’minlaydi;
> - materiallar alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun ham moslaştiriladi.

3. Ilğor pedagogik yondaşuvlar va metodlar

Huquqiy ta’limda asosiy yondaşuvlar uçta: kompetensiyaviy (natija – amalda qöllay oliş), faoliyatli (ta’lim oluvçi huquqiy rolni bajaradi) va tajribaga asoslangan (hayotiy vaziyat, tahlil, xulosa, qayta qöllaş). Quyidagi metodlar uşbu yondaşuvlarni darsda amalga oşiriş vositasi hisoblanadi.

Metodlarning ta’lim bosqiçlariga mosligi

Metod	Maktab 1–4	Maktab 5–9	Maktab 10–11, litsey	Texnikum	OTT
3.1. Keys-stadi	✓	✓	✓	✓	✓
3.2. Öquv sud jarayoni	–	✓	✓	✓	✓
3.3. Debat va tuzilmaviy munozara	–	✓	✓	✓	✓
3.4. Loyihaga asoslangan ta’lim	✓	✓	✓	✓	✓
3.5. Rolli öyin va simulyatsiya	✓	✓	✓	✓	✓
3.6. Mediatsiya va tiklovçi adolat doirasi	✓	✓	✓	✓	✓
3.7. Teskari sinf (flipped classroom)	–	✓	✓	✓	✓
3.8. Köça huquqi (Street Law)	–	✓	✓	✓	✓
3.9. Yuridik klinika	–	–	–	–	✓
3.10. Geymifikatsiya va raqamli resurslar	✓	✓	✓	✓	✓

3.1. Keys-stadi

Mohiyati. Ta’lim oluvçilar hayotiy vaziyatni tahlil qilib, qaysi huquq buzilganini va qanday hal qiliş mumkinligini aniqlaydi.

Qadamlar: (1) vaziyat matnini öqiş (3–5 daq.), (2) faktlarni ajratiş: kim, nima qildi, (3) huquqiy savolni aniqlaş, (4) normani topiş (Konstitutsiya, kodeks, lex.uz), (5) yeçim taklif qiliş va asoslaş, (6) umumiy muhokama va xulosa.

Maslahat. Keys ta’lim oluvçining aynan hozirgi hayotidan bölsin: maktabda – telefon olib qöyilişi, texnikumda – amaliyotda iş haqi tölanmasligi, oliy ta’limda – ijara şartnomasi. Haqiqiy şaxslar va ta’lim oluvçilarning şaxsiy holatlari keysga kiritilmaydi. Namunalar – 2-ilovada.

3.2. Öquv sud jarayoni

Mohiyati. Sud jarayoni rollar böyiça qayta tiklanadi: sudya, da’vogar, javobgar, vakillar, guvohlar, kuzatuvçilar.

Qadamlar: (1) fabulani tanlaş (fuqarolik yoki ma’muriy iş mavzusi afzal), (2) rollarni taqsimlaş va har bir rol uçun qisqa yöriqnoma beriş, (3) tayyorgarlik (bir dars yoki uy vazifasi), (4) jarayon (35–40 daq.), (5) roldan çiqiş va tahlil: nima adolatli böldi, nima boşqaça bölişi mumkin edi.

Maslahat. Voyaga yetmaganlar bilan jinoyat işidan köra fuqarolik nizo (sotilgan nusxasiz tovar, şikastlangan velosiped) maqsadga muvofiq. Sud va advokatura xodimlarini baholovçi sifatida taklif qiliş mumkin.

3.3. Debat va tuzilmaviy munozara

Mohiyati. Ikki guruh huquqiy masala böyiça aniq qoidalar asosida munozara qiladi (masalan: “16 yoşdan boşlab ijtimoiy tarmoqda akkaunt oçişga ruxsat berilsin”). Maqsad – ğalaba emas, dalil va normaga tayaniş könikmasi.

Qadamlar: tezisni e’lon qiliş, tayyorgarlik (manbalar röyxati beriladi), çiqişlar (2–3 daq.), savollar, taraflar örnini almaştirib qisqa çiqiş, umumiy xulosa.

3.4. Loyihaga asoslangan ta’lim

Mohiyati. Ta’lim oluvçilar 2–6 hafta davomida huquqiy muammoni örganib, aniq mahsulot tayyorlaydi: maktab içki tartibi loyihasi, iste’molçi eslatmasi, mahalla uçun huquqiy infografika, kiçik videorolik.

Qadamlar: muammoni aniqlaş, manbalarni örganiş, mutaxassis bilan suhbat (notarius, inspektor, advokat), mahsulot, taqdimot, refleksiya. Baholaş 3-ilovadagi rubrika böyiça.

3.5. Rolli öyin va simulyatsiya

Mohiyati. Davlat va jamiyat institutlari faoliyati kiçik miqyosda körsatiladi: “Sinf parlamenti” (qonun loyihasini muhokama qiliş), “Mahalla yiğini”, “Dökonda iste’molçi”, “Işga qabul suhbati”. Kiçik sinflarda – sodda sahnalar va qöğirçoq teatri.

Maslahat. Simulyatsiyadan keyin albatta “roldan çiqiş” va tahlil bosqiçi ötkaziladi, aks holda öyin bilimga aylanmaydi.

3.6. Mediatsiya va tiklovçi adolat doirasi

Mohiyati. Nizoni jazo orqali emas, taraflar muloqoti va yetkazilgan zararni tuzatiş orqali hal qiliş. Muassasada ta’lim oluvçilardan iborat “tengdoşlar mediatsiyasi” guruhi taşkil etiladi (psixolog nazoratida).

Qadamlar: kelişuv qoidalari (gapni bölmaslik, hurmat), har tarafning hikoyasi, yetkazilgan zararni aniqlaş, yeçim variantlari, yozma kelişuv, keyinçalik tekşiruv.

Çegara. Zöravonlik, jinsiy tajovuz va jinoyat alomatlari bölgan holatlar mediatsiyaga berilmaydi: ular belgilangan tartibda muassasa rahbariyati, psixolog va vakolatli organlarga yetkaziladi.

3.7. Teskari sinf (flipped classroom)

Mohiyati. Nazariy material (qisqa video, matn, QR-kod orqali oçiladigan manba) darsdan oldin uyda örganiladi, dars vaqti esa amaliy maşq va muammoni yeçişga sarflanadi. Darsning markazi – savol şaklida berilgan muammo: “Internetdan sotib olingan tovar sifatsiz çiqdi – nima qilaman?” Şu tariqa muammoli savol teskari sinf darsining içki qismi bölib xizmat qiladi.

Qadamlar: (1) öqituvçi 7–10 daqiqalik video yoki qisqa matn va 3–5 ta tekşiruv savolini tayyorlab, darsdan oldin beradi; (2) dars boşida 5 daqiqa içida tayyorgarlik tekşiriladi (mini-test, savol-javob); (3) ta’lim oluvçilar guruhlarda keys yoki muammoni yeçadi; (4) öqituvçi fasilitator sifatida yordam beradi; (5) yeçimlar muhokama qilinib, xulosa çiqariladi.

Maslahat. Uyda internet imkoni bölmagan ta’lim oluvçilar uçun materialning bosma nusxasi beriladi yoki uni muassasa kompyuter xonasida örganiş imkoni yaratiladi.

3.8. Köça huquqi (Street Law)

Mohiyati. Yuridik yönaliş talabalari va yoş mutaxassislar maktab, litsey va texnikumlarda kundalik hayotdagi huquq böyiça interfaol maşğulotlar ötkazadi. 202-son qarorning 14-bandida çorakda bir marta ötkaziş nazarda tutilgan.

Taşkil etiş: (1) oliy ta’lim taşkiloti talabalarini metodika böyiça qisqa tayyorlaş (8–12 soat), (2) muassasalar bilan jadval kelişiş, (3) mavzularni ta’lim oluvçilar sörovi asosida tanlaş, (4) maşğulot fan öqituvçisi iştirokida ötadi, (5) har maşğulotdan keyin qisqa sörovnoma (4-ilova).

3.9. Yuridik klinika

Mohiyati. Yuridik yönaliş talabalari öqituvçi nazoratida aholiga bepul birlamçi huquqiy maslahat beradi. Yuridik yönalişlar bölmagan oliy ta’lim taşkilotlarida klinika metodidan sohaga moslaştirilgan holda foydalaniş mumkin: pedagogika talabalari – ota-onalarga ta’lim sohasidagi huquqlar böyiça, tibbiyot talabalari – bemor huquqlari böyiça tuşuntiriş işlari.

3.10. Geymifikatsiya va raqamli resurslar

Mohiyati. Viktorinalar, “huquqiy kvest”lar, ball va nişonlar tizimi, onlayn testlar. Rasmiy resurslar: bolahuquqlari.uz (interfaol huquqiy öyinlar, animatsion videolar), advice.uz (bepul huquqiy maslahat), lex.uz (normativ hujjatlar).

Maslahat. Raqamli vosita darsning bir bosqiçi sifatida işlatiladi, darsning örnini bosmaydi. Har bir viktorina savoli modda raqamini yodlaşga emas, amaliy vaziyatga boğlanadi.

Ijodiy şakllar. “Huquqiy kvest”, “60 soniyada huquq” va “Sun’iy intellekt va huquq” şakllarining tavsifi 8.4 va 8.5-bandlarda keltirilgan.

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - metod maqsad emas, natijaga erişiş vositasi: har bir metod aniq “nima qila oladi?” natijasiga boğlanadi;
> - har bir simulyatsiya va rolli öyindan keyin “roldan çiqiş” va tahlil bosqiçi ötkaziladi;
> - zöravonlik, jinsiy tajovuz va jinoyat alomatlari bölgan holatlar mediatsiyaga berilmaydi;
> - teskari sinfda ta’lim oluvçining uy şaroiti va internet imkoni hisobga olinadi, raqamli vosita darsning örnini bosmaydi.

4. Umumiy örta ta’lim maktablari uçun tavsiyalar

4.1. Bosqiç xususiyatlari

Maktab – huquqiy tarbiyaning eng uzoq va eng keng qamrovli bosqiçi. Bu yerda asosiy vazifa normalarni yodlatiş emas, adolat, hurmat va javobgarlik odatini şakllantiriş. Huquqiy mazmun “Tarbiya” (1–11-sinflar) va “Davlat va huquq asoslari” (8–11-sinflar) fanlari, sinf soatlari, “Huquqiy sinf”lar va maktab hayotining özi orqali beriladi.

4.2. Sinflar böyiça mazmun va metodlar

Sinflar	Asosiy mavzular	Tavsiya etiladigan metodlar	Kutiladigan natija
1–4	Oila va sinf qoidalari, bola huquqlari, yöl va internet xavfsizligi, begona odamlarning narsasi	Rolli öyin, ertak va rasm asosida suhbat, sinf kelişuvini birgalikda tuziş, videoroliklar	Qoidaning nima uçun kerakligini tuşuntira oladi, xavfli vaziyatda kimdan yordam söraşni biladi
5–7	Huquq va burç birligi, bulling va kiberbulling, şaxsiy ma’lumot, mulkka hurmat, tabiatni muhofaza qiliş	Keys-stadi, tengdoşlar mediatsiyasi, kvest, kiçik loyihalar	Bulling va firibgarlikni taniydi, tengdoşi huquqiga hurmat bilan munosabatda böladi
8–9	Konstitutsiya asoslari, voyaga yetmaganlarning ma’muriy va jinoiy javobgarligi, iste’molçi huquqlari, onlayn firibgarlik	Keys-stadi, soddalaştirilgan öquv sudi, loyiha, Köça huquqi (Street Law) maşğulotlari	Qonundan kerakli normani topadi, ariza yoza oladi, harakatining huquqiy oqibatini baholaydi
10–11	Davlat hokimiyati tizimi, saylov huquqi, mehnat şartnomasi, oila huquqi asoslari, korrupsiyaga qarşi kuraş, raqamli davlat xizmatlari	Debat, öquv sudi, “Sinf parlamenti”, teskari sinf (flipped classroom)	Huquqiy pozitsiyasini dalil bilan asoslaydi, davlat xizmatiga mustaqil murojaat qila oladi, huquq fanidan sertifikat sinoviga tayyor

“Adolatjon” personaji (1–4-sinflar). Boşlanğiç sinflar uçun doimiy ertak qahramoni kiritiladi: u har çorakda yangi muammoga duç keladi, öquvçilar unga maslahat beradi. Masalan, I çorakda – birovning narsasiga tegmaslik, II çorakda – yordam söraş, III çorakda – yöl va internetda xavfsizlik, IV çorakda – nizoni söz bilan hal qiliş. Syujet qöğirçoq teatri ssenariysi bilan töldiriladi.

Kutilayotgan natija: qoida va adolat tuşunçasi his etiladi.

4.3. Fanlararo integratsiya

Fan	Huquqiy mazmun namunasi
Ona tili va adabiyot	Asar qahramonining xatti-harakatini huquqiy va axloqiy jihatdan baholaş, rasmiy ariza yoziş
Tarix	Amir Temur tuzuklari, Konstitutsiyalar tarixi, inson huquqlari tarixi
Informatika	Şaxsiy ma’lumotlar, mualliflik huquqi, internetda firibgarlik va undan himoyalaniş
Matematika	Kredit foizi, soliq va jarima hisobidagi masalalar
Biologiya, geografiya	Ekologik huquqbuzarliklar va burçlar

Fan	Huquqiy mazmun namunasi
Jismoniy tarbiya	Adolatli öyin, dopingga qarşi qoidalar

4.4. Huquqiy sinflar uçun qöşimça tavsiyalar

- Har çorakda kamida bir öquv sud jarayoni va bir debat ötkaziladi.
- Hududdagi sud, notarial idora, adliya boşqarmasiga yiliga kamida ikki marta sayohat taşkil etiladi.
- Oliy ta’lim taşkilotlari va yuridik yönalişdagi litseylar bilan mentorlik juftligi taşkil etiladi (talaba – öquvçi).
- Öquvçilar maktabdagi boşqa sinflar uçun qisqa huquqiy maşğulotlar ötkazadi.

4.5. Maktab hayoti orqali tarbiya

- Içki tartib qoidalari öquvçilar kengaşi iştirokida muhokama qilinadi.
- Şikoyat va takliflar uçun şaffof kanal böladi (quti, onlayn şakl) va javob muddati e’lon qilinadi.
- Bulling holatlarida harakat algoritmi bor: kimga xabar beriladi, qança vaqtda, qanday çora köriladi.
- Baholaş mezonlari dars boşida aytiladi: adolatli baholaş ham huquqiy tarbiyaning bir qismi.

Muassasaning huquqiy auditi. 8–11-sinf öquvçilari maktabning içki tartib qoidalarini Konstitutsiya va Ta’lim töğrisidagi Qonunga muvofiqligi nuqtai nazaridan örganib, öquvçilar kengaşiga asoslangan takliflar beradi (8.4-band).

4.6. Ota-onalar bilan işlaş

Çorakda bir marta ota-onalar yiğilişida 15 daqiqalik huquqiy daqiqa ötkaziladi: bolaning internetdagi xavfsizligi, oiladagi zöravonlikning oldini oliş, voyaga yetmaganlar mehnati şartlari, ta’lim sohasidagi huquq va burçlar.

Oilaviy huquqiy çek-list. Ota-onalar uçun farzandi bilan birga javob beriladigan bir sahifalik savolnoma va kiçik oilaviy uy topşiriqlari taklif etiladi. Namuna savollar: oilada uçta asosiy qoida birgalikda belgilanganmi; farzand yordam kerak bölganda kimga murojaat qilişni (ota-ona, sinf rahbari, psixolog) biladimi; farzand internetda notaniş odamga şaxsiy ma’lumotini (pasport, bank kartasi raqami) bermasligini biladimi; bulling holatida nima qiliş kerakligini birgalikda muhokama qilganmizmi. Uy topşiriqlari: Oilaviy qoidalar plakatini birga tuziş; onlayn xarid şartlarini birga öqib, uçta muhim şartni topiş. Çek-list oilaning özida qoladi, muassasaga topşirilişi şart emas: u suhbat uçun vosita.

Kutilayotgan natija: oila huquqiy tarbiyaning teng huquqli iştirokçisiga aylanadi.

4.7. Baholaş

Huquqiy bilim test bilan, könikma va munosabat vaziyatli topşiriq va rubrika bilan baholanadi (3-ilova). 1–4-sinflarda baho qöyilmaydi: uning örniga öqituvçi kuzatuv varaqasini yuritadi.

◆ ILĞOR TAJRIBA

Milliy tajriba. 2024/2025 öquv yilidan maktablarda “Huquqiy sinf”lar va huquqiy fanlarni çuqurlaştirib öqitiş orqali “maktab – litsey – texnikum – universitet” uzluksiz tizimi joriy etilgan (Vazirlar Mahkamasining 532-son qarori). Bu tajriba 4.4-banddagi qöşimça tavsiyalar (har çorakda öquv sudi va debat, adliya boşqarmasiga sayohat) uçun asos böladi.

Xorijiy tajriba. AQŞda Street Law dasturi 1972-yilda Jorjdtaun universiteti huquq markazi talabalari tomonidan boşlangan: yuridik fakultet talabalari maktablarda hayotiy huquq böyiça interfaol darslar ötkazadi. Bugungi kunda bu tajriba 40 dan ortiq mamlakatda qöllanadi. Özimizda moslaştiriş: Köça huquqi (3.8-band) va Huquqiy köprik (2.5-band).

★ YODDA TUTING

- maktabda asosiy vazifa – adolat, hurmat va javobgarlik odatini şakllantiriş;
- mazmun sinflar böyiça asta-sekin murakkablaşadi: bola huquqidan Konstitutsiya va fuqarolik huquqi asoslarigaça;
- maktab muhiti (qoidalar, şikoyat kanali, bullingga qarşi algoritm) özi dars hisoblanadi;
- ota-onalar hamkorligisiz huquqiy tarbiya samarasiz böladi.

SVR6417

5. Akademik litseylar uçun tavsiyalar

5.1. Bosqiç xususiyatlari

Akademik litsey öquvçilari – oliy ta’limga maqsadli tayyorlanayotgan, aksariyati 16–18 yoşli yoşlar. Bu yoşda tanqidiy fikrlaş, adolatsizlikka sezgirlik va mustaqil qaror qabul qiliş istagi kuçli. Huquqiy ta’lim şu istakni dalilga asoslangan fuqarolik faolligiga yönaltirişi kerak.

Litseylar ikki guruhga bölinadi:

Guruh	Huquqiy ta’limdagi urğu
Yuridik yönalişdagi litseylar (masalan, yuridik universitet huzuridagi litseylar)	Kasbga kiriş: huquqiy tahlil, hujjat tuziş, sud jarayoni va yurist etikasi
Boşqa yönalişdagi litseylar (aniq, tabiiy, ijtimoiy fanlar)	Fuqarolik huquqiy savodxonligi va tanlangan sohaga oid huquqiy asoslar (ixtirolar va patent, bemor huquqlari, raqamli huquq)

5.2. Maqsadli natijalar

Litsey bitiruvçisi:

- Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni, ularni himoya qiliş yöllarini aytib bera oladi;
- davlat organiga ariza, şikoyat va taklifni mustaqil tayyorlay oladi;
- huquqiy masala böyiça istalgan pozitsiyada dalilli munozara qila oladi;
- internetdagi huquqiy ma’lumotning işonçliligini tekşira oladi (rasmiy manba – lex.uz bilan soliştiriş);
- huquq fanidan sertifikat sinoviga va oliy ta’limdagi huquqiy fanlarga tayyor.

5.3. Mazmun va metodlar

Mavzu bloki	Tavsiya etiladigan metod	Mahsulot
Konstitutsiyaviy tuzum va davlat hokimiyati	“Litsey parlamenti” simulyatsiyasi	Qonun loyihasi va unga tuşuntiriş xati
Inson huquqlari va ularning himoyasi	Keys-stadi, Ombudsman va sud amaliyotidan namunalar	Himoya yöli böyiça sxema
Fuqarolik va iste’molçi huquqi	Öquv sud jarayoni	Da’vo arizasi loyihasi
Korrupsiyaga qarşi kuraş va akademik xolislik	Debat, axloqiy dilemma vaziyatlari	Litsey xolislik kodeksi loyihasi
Raqamli huquq va şaxsiy ma’lumotlar	Kiçik tadqiqot	Ilovalarning maxfiylik siyosati tahlili

5.4. Tarbiyaviy işlar

- Litsey öquvçilar kengaşi haqiqiy vakolatga ega bölişi: içki qoidalar loyihasiga taklif beradi, nizolarda mediator böladi.

- Huquqiy tögarak haftasiga bir marta: debat, sud musobaqalariga tayyorgarlik.
- Tengdoş – tengdoşga – litsey öquvçilari yaqin maktablarning 8–9-sinflarida qisqa huquqiy maşğulot ötkazadi (Huquqiy köprik, 2.5-band).
- Respublika tanlovlariga tayyorgarlik: “Yoşlar va qonun”, “Huquq va mantiq çiziği”, Konstitutsiya olimpiadasi.
- Muassasaning huquqiy auditi – litsey öquvçilari içki qoidalar loyihasini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi böyiça tahlil qilib, taklif tayyorlaydi (8.4-band).

5.5. Baholaş

Bahoning kamida 40 foizi amaliy topşiriqlardan taşkil topadi: hujjat loyihasi, keys yeçimi, debatdagi çiqiş. Test sinovlari sertifikat sinovi formatiga yaqinlaştiriladi, lekin yagona baholaş şakli bölib qolmaydi.

◆ ILĞOR TAJRIBA

Milliy tajriba. Respublika darajasida “Yoşlar va qonun” tanlovi, “Huquq va mantiq çiziği” va Konstitutsiya olimpiadasi litsey öquvçilari uçun musobaqa maydoni bölib xizmat qiladi (5.4-band). 202-son qarorning 14-bandiga köra Köça huquqi maşğulotlari çorakda bir marta ötkaziladi, litsey öquvçilari esa 8–9-sinflarda “tengdoş – tengdoşga” maşğulotini olib boradi.

Xorijiy tajriba. AQŞda Street Law dasturining birinçi bosqiçi 1972–1973-yillarda öquv sudi (mock trial) musobaqasi bilan yakunlangan: örta maktab öquvçilari advokat va guvoh rollarini bajarib, sud zalida iştirok etgan. Bu birinçi maktablararo musobaqa bölgan. Özimizda moslaştiriş: 3.2-band va 1-ilovadagi 1.2-işlanma (öquv sudi).

★ YODDA TUTING

- litsey öquvçilarining tanqidiy fikrlaşi dalilga asoslangan fuqarolik faolligiga yönaltiriladi;
- litseylar ikki guruhga bölinadi: yuridik va boşqa yönalişdagilar, ularning huquqiy ta’limdagi urğusi turliça;
- bahoning kamida 40 foizi amaliy topşiriqlardan iborat böladi;
- litsey öquvçilari “Huquqiy köprik” orqali kiçik sinflar bilan boğlanadi.

SVR6417

6. Texnikumlar uçun tavsiyalar

6.1. Bosqiç xususiyatlari

Texnikum talabalari qisqa vaqt içida mehnat bozoriga çiqadi, köpçiligi öqiş vaqtida amaliyotga va işga jalb etiladi. Şuning uçun bu bosqiçda huquqiy ta’limning markazi – mehnat huquqi, mehnat muhofazasi va kasbga oid javobgarlik. Har bir mavzu talabaning kelajakdagi iş joyida uçraydigan vaziyatga boğlanadi.

Amaliyotda texnikumlarda quyidagi kamçiliklar köp uçraydi: huquqiy mazmun kasbiy tayyorgarlik bilan yetarli boğlanmagan (bölajak payvandçi, hamşira, oşpaz yoki dasturçi öz kasbiga oid huquqiy masalalarni deyarli örganmaydi); 9-sinf va 11-sinf bazasidagi guruhlarda bir xil mazmun va metodlar qöllanadi; işlab çiqariş amaliyotida talabalarning mehnat huquqlari va xavfsizligiga kam e’tibor beriladi; natijalar faqat bilimni tekşiriş bilan çeklanadi. Uşbu bölimdagi tavsiyalar şu kamçiliklarni bartaraf etişga qaratilgan.

Texnikumlarning öziga xos jihati – ularda umumiy örta ta’limning 9-sinfi va 11-sinfi bazasida ta’lim oluvçi ikki xil kontingent tahsil oladi. Bu guruhlar yoşi, huquqiy tayyorgarligi, huquqiy maqomi va ehtiyojlari jihatidan farq qiladi, şuning uçun huquqiy ta’lim yagona andoza asosida emas, tabaqalaştirilgan holda taşkil etiladi:

- 9-sinf bazasidagi guruhlar (taxminan 15–18 yoş, aksariyati voyaga yetmagan): ösmirlik davri – mustaqillikka intiliş, tengdoşlar ta’siri va tavakkalçilikka moyillik kuçli. Asosiy urğu huquqiy ongning poydevorini yaratiş, şaxsiy va raqamli xavfsizlik hamda huquqbuzarliklarning oldini olişga qaratiladi; voyaga yetmaganlar uçun maxsus kafolatlar va mehnat şaroitiga oid çeklovlar alohida tuşuntiriladi;
- 11-sinf bazasidagi guruhlar (taxminan 17–20 yoş va undan katta, aksariyati voyaga yetgan): töliq muomala layoqati, saylov huquqi va töliq huquqiy javobgarlikka ega. Urğu kasbiy va mustaqil hayotda huquqlarni amalda qöllaş va himoya qilişga – mehnat huquqi, şartnomalar, tadbirkorlik, soliqlar, oila va iste’molçi huquqlariga qaratiladi.

9-sinf bazasidagi talabalarning oxirgi kurslarida 11-sinf bazasidagi mazmunga izçil ötib boriladi. Öquv yili boşida kiriş diagnostikasi (sörovnoma, suhbat, keys-topşiriq) ötkazilib, har bir kontingent uçun huquqiy ta’lim va tarbiya rejasi şu asosda tuziladi.

6.2. Maqsadli natijalar

Texnikum bitiruvçisi:

- mehnat şartnomasini öqib, asosiy şartlarini (lavozim, iş haqi, iş vaqti, sinov muddati) tekşira oladi;
- şartnomasiz işlaşning oqibatlarini tuşunadi (staj, pensiya, ijtimoiy himoya);
- iş joyidagi nizoni hal qiliş tartibini va murojaat qiliş mumkin bölgan idoralarni biladi;
- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari huquqiy talab ekanini anglaydi;
- tadbirkorlik faoliyatini rasmiylaştiriş va raqamli davlat xizmatlaridan foydalaniş asoslarini biladi;
- kasbdagi korrupsiya va manfaatlar töqnaşuvi vaziyatlarini taniydi;
- normativ hujjatni rasmiy manbadan (lex.uz) topa oladi, ariza, şikoyat va murojaatni mustaqil yoza oladi;

- ijara va boşqa fuqarolik-huquqiy bitimlarni yozma rasmiylaştirişning ahamiyatini tuşunadi;
- raqamli muhitdagi huquqiy xavflarni (internet-firibgarlik, şaxsga doir ma’lumotlarning tarqalişi, kiberbulling, onlayn qimor va giyohvandlik vositalari savdosiga jalb qiliş) tanib, ulardan himoyalana oladi.

6.3. Mutaxassislikka boğlangan mazmun

Umumiy mavzulardan taşqari, har bir yönalişga 2–3 ta sohaga oid huquqiy mavzu qöşiladi:

Yönaliş	Sohaga oid huquqiy mavzular
Tibbiyot (hamşiralik, farmatsevtika)	Bemor huquqlari, tibbiy sir, dori vositalari muomalasi
Quriliş, sanoat, energetika	Mehnat muhofazasi, işlab çiqarişdagi baxtsiz hodisalar uçun javobgarlik
Axborot texnologiyalari va dasturlaş	Şaxsiy ma’lumotlar, mualliflik huquqi va litsenziyalar, frilans şartnomasi
Iqtisod, savdo, xizmat körsatiş	Iste’molçi huquqlari, nazorat-kassa texnikasi, soliq majburiyatlari
Qişloq xöjaligi	Yer va suvdan foydalaniş, fermer xöjaligi, ekologik javobgarlik
Transport	Yöl harakati qoidalari, taşuvçi va yölovçi huquqlari, suğurta

Jadvaldagi mavzular quyidagilar bilan töldirilişi mumkin: quriliş, sanoat va energetikada – maxsus kiyim va himoya vositalariga bölgan huquq; tibbiyotda – kasbiy xato uçun javobgarlik; axborot texnologiyalarida – kiberhuquqbuzarliklar uçun javobgarlik; xizmat körsatiş va umumiy ovqatlanişda – sanitariya talablari va özini özi band qiliş; transportda – haydovçi javobgarligi va xizmat körsatiş şartnomasi. Pedagogika va maktabgaça ta’lim yönalişi uçun: bola huquqlari, tarbiyaçi va öqituvçining huquq va burçlari, bolalarga nisbatan zöravonlikning oldini oliş.

Huquqiy blok. Maxsus fan öqituvçilari va işlab çiqariş ta’limi ustalari huquq fani öqituvçisi bilan birgalikda har bir yönaliş uçun “kasbiy-huquqiy mavzular röyxati”ni tuzadi va ularni tegişli darslarga 10–15 daqiqalik “huquqiy blok” sifatida kiritadi.

Tabaqalaştirilgan modullar. 9-sinf bazasidagi guruhlar uçun: “Men va huquq” (huquq va axloq normalari, Konstitutsiya, voyaga yetiş va huquqiy layoqat), “Texnikumdagi huquq va burçlarim” (içki tartib qoidalari, nizolarni tinç yöl bilan hal qiliş), “Huquqbuzarlik va javobgarlik” (ma’muriy va jinoiy javobgarlik yoşi, voyaga yetmaganlar işlari böyiça kafolatlar), “Raqamli xavfsizlik” (şaxsga doir ma’lumotlar, internet-firibgarlik, kiberbulling, onlayn qimor va giyohvandlikka jalb qiliş xavfi), “Oila va jamiyatda huquqlar” (zöravonlikdan himoya, işonç telefonlari), “Kasbga ilk qadam” (voyaga yetmaganlar mehnatining öziga xos şartlari, amaliyotda xavfsizlik).

11-sinf bazasidagi guruhlar uçun: “Fuqaro va davlat” (konstitutsiyaviy huquq va burçlar, saylov huquqi, murojaat qiliş tartibi, harbiy xizmat majburiyati), “Mehnat huquqi” (mehnat şartnomasi, iş vaqti va dam oliş, iş haqi, mehnat nizolari, norasmiy bandlik xavflari), “Fuqarolik va tadbirkorlik huquqi” (oldi-sotdi, ijara, qarz va kredit şartnomalari, özini özi band qiliş, soliq majburiyatlari), “Oila huquqi”, “Kasbiy javobgarlik” (moddiy va intizomiy javobgarlik, korrupsiyaga qarşi kuraşiş), “Huquqlarni himoya qiliş” (sud, prokuratura, adliya, ombudsman, bepul yuridik yordam, elektron murojaat). Modullar amaldagi öquv dasturini almaştirmaydi, balki uni töldiradi.

Amaliyotdan oldin va keyin. Işlab çiqariş amaliyotidan oldin barça guruhlar uçun “Amaliyotda huquqlarim va burçlarim” mavzusida yöriqnoma maşğuloti ötkaziladi, amaliyot yakunida esa talabalar amaliyot joyida duç kelgan huquqiy vaziyatlarni tahlil qiladi.

6.4. Tavsiya etiladigan metodlar

- **Şartnoma ustaxonasi (keys + hujjat bilan işlaş):** talabalar ataylab xatolar bilan tuzilgan mehnat şartnomasidagi buzilişlarni topadi.
- **Işga qabul suhbati rolli öyini:** qaysi savollar qonuniy, qaysilari kamsitiş bölişi mumkin.
- **Amaliyot kundaligining huquqiy bölimi:** talaba amaliyot joyidagi mehnat muhofazasi va iş şaroitini qisqa tahlil qiladi.
- **Kasbiy mediatsiya:** iş joyidagi nizo (iş haqi keçiktirildi, majburiy ortiqça iş) taraflar rolida hal qilinadi.
- Köça huquqi (Street Law) maşğulotlari – ayniqsa mehnat migratsiyasi va onlayn iş takliflaridagi firibgarlik mavzularida.
- Keys-stadi (3.1-band) kontingentga qarab tabaqalaştiriladi: 9-sinf bazasidagi guruhlarda qisqa va tuşunarli keyslar (masalan, ijtimoiy tarmoqda birovning suratini ruxsatsiz joylaştiriş), 11-sinf bazasidagi guruhlarda esa hujjatlar bilan işlaşni talab qiladigan murakkabroq keyslar (masalan, mehnat şartnomasidagi noqonuniy şartlar) qöllanadi.
- **Hujjatlar bilan işlaş ustaxonasi:** talabalar ariza, şikoyat, tuşuntiriş xati, mehnat va ijara şartnomasi namunalarini tahlil qiladi va mustaqil tuzadi, my.gov.uz portalida elektron murojaat yuboriş tartibini maşq qiladi.
- **Tengdoşdan tengdoşga:** maxsus tayyorlangan 11-sinf bazasidagi talabalar 9-sinf bazasidagi kiçik kurs talabalariga huquqiy mavzularda maşğulot ötkazadi – ösmirlar tengdoşlarining fikrini kattalarnikiga qaraganda osonroq qabul qiladi. Yuridik va pedagogik yönaliş talabalari esa texnikumlarda mentor sifatida maşğulot ötkazadi (“Huquqiy köprik”, 2.5-band).

9-sinf bazasidagi guruhlarda rolli va öyin metodlari, vizual materiallar va huquqiy kvest, 11-sinf bazasidagi guruhlarda esa keys-stadi, loyiha, hujjatlar bilan işlaş va öquv sud jarayoni ustuvor hisoblanadi. Maşğulotda ma’ruza qismi 15–20 daqiqadan oşmasligi, qolgan vaqt faol işga ajratilişi tavsiya etiladi. 1.3-ilovadagi dars işlanmasi 9-sinf bazasidagi guruhlarda soddalaştirilgan holda – voyaga yetmaganlar mehnatining özига xos şartlari va işlab çiqariş amaliyotidagi xavfsizlik misolida ötiladi.

6.5. Iş beruvçilar bilan hamkorlik

Amaliyot obyektlarining kadrlar va mehnat muhofazasi böyiça mutaxassislari semestrda bir marta oçiq maşğulotga taklif qilinadi. Iş beruvçining aniq hujjatlari (şaxsiy ma’lumotlari olib taşlangan holda) öquv materiali sifatida işlatiladi.

Işlab çiqariş amaliyoti joylarida talabalarning mehnat huquqlari va xavfsizligi ta’minlanişi iş beruvçi bilan birgalikda nazorat qilinadi; korxona mutaxassislari maxsus fanlardagi kasbiy-huquqiy mavzular böyiça maşğulotlarga ham jalb etiladi.

6.6. Tarbiyaviy işlar

- “Yoş huquqşunoslar” tögaragi yoki klubi – haftasiga bir marta: keys yeçiş, öquv sud jarayonlari, tanlovlarga tayyorgarlik, tengdoşlar uçun maşğulotlar tayyorlaş.
- Tengdoşlar mediatsiyasi xizmati – maxsus tayyorlangan talabalar guruh içidagi nizolarni pedagog-psixolog rahbarligida tinç yöl bilan hal qilişga kömaklaşadi (3.6-banddagi çegaralar saqlanadi).

- Muassasaning huquqiy auditi – talabalar texnikumning içki tartib qoidalari va yotoqxona qoidalarini Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi böyiça örganib, taklif beradi (8.4-band).
- Guruh rahbari soatlari – har oyda kamida bir marta huquqiy mavzuga bağişlanadi; mavzular guruh kontingenti (9- yoki 11-sinf bazasi) va öşa davrdagi dolzarb masalalarga mos tanlanadi.
- Yotoqxona va ijarada yaşovçilar bilan işlaş – ota-onadan uzoqda yaşovçi, ayniqsa voyaga yetmagan talabalar uçun xavfsizlik, ijara munosabatlari va huquqbuzarliklarning oldini oliş böyiça alohida suhbatlar ötkaziladi.
- Individual profilaktika – xavf guruhidagi ta’lim oluvçilar bilan pedagog-psixolog, guruh rahbari va profilaktika inspektori hamkorlikda şaxsiy kuzatuv va qöllab-quvvatlaş rejasi asosida işlaydi.
- Ota-onalar va mahalla bilan işlaş – 9-sinf bazasidagi voyaga yetmagan talabalarning ota-onalari uçun yiliga kamida ikki marta huquqiy mavzudagi yiğiliş ötkaziladi (bola huquqlari, raqamli xavfsizlik, huquqbuzarliklarning oldini oliş); mahalladagi yoşlar yetakçisi va profilaktika inspektori bilan birgalikda talabalarning böş vaqti mazmunli taşkil etiladi.

6.7. Baholaş

Asosiy baholaş şakli – amaliy topşiriq: şartnomani tahlil qiliş, iş beruvçiga ariza yoziş, iş joyidagi vaziyat böyiça harakat rejasini tuziş. Rubrika – 3-ilovada.

Texnikumda huquqiy ta’lim natijalari bilim, könikma, qadriyat va xulq-atvor darajalarida baholanadi. Öquv yili boşida kiriş, yakunida esa yakuniy diagnostika ötkazilib, natijalar soliştiriladi; 9-sinf va 11-sinf bazasidagi guruhlar natijalari alohida tahlil qilinadi. Monitoring natijalari yiliga kamida bir marta pedagogik kengaşda muhokama qilinib, kelgusi öquv yili rejasiga tuzatişlar kiritiladi.

◆ **ILĞOR TAJRIBA**

Milliy tajriba. texnikumlardagi ilğor tajriba quyidagi tartibda umumlaştiriladi: muassasa nomi va yönalişi; qanday kasbiy-huquqiy blok yoki “keys-bank” qöllangan; natija (10-bölimdagi körsatkiçlar böyiça); boşqa texnikumlarga moslaştiriş şarti. Eng samarali tajribalar şu şaklda umumlaştirilib, qöllanmaning keyingi naşrlariga kiritiladi.

Xorijiy tajriba. Germaniyada dual kasbiy ta’lim tizimida ta’lim oluvçi korxonada amaliy ta’lim olişi bilan birga kasb maktabida umumta’lim va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni, jumladan mehnat munosabatlari asoslarini örganadi. Özimizda moslaştiriş: amaliyotdan oldin va keyin huquqiy maşğulot (6.3-band) hamda iş beruvçilar bilan hamkorlik (6.5-band).

★ **YODDA TUTING**

- texnikumda huquqiy ta’limning markazi – mehnat huquqi, mehnat muhofazasi va kasbga oid javobgarlik;
- 9- va 11-sinf bazasidagi guruhlar uçun mazmun va metodlar tabaqalaştiriladi;
- huquqiy mazmun mutaxassislik fanlari bilan “huquqiy blok” orqali boğlanadi;
- asosiy baholaş şakli – amaliy topşiriq.

7. Oliy ta’lim taşkilotlari uçun tavsiyalar

7.1. Bosqiç xususiyatlari

Oliy ta’lim taşkilotlarida huquqiy ta’lim uç yönalişda boradi:

Yönaliş	Kimlar uçun	Mazmuni
A. Sohaga oid huquqiy kompetensiya	Yuridik bölmagan barça yönaliş talabalari	Bölajak kasbdagi huquq va javobgarlik: pedagog, şifokor, muhandis, iqtisodçi, axborot texnologiyalari mutaxassisi
B. Akademik muhit va talaba huquqlari	Barça talabalar	Akademik xolislik, apellyatsiya, talabalar turar joyi, kontrakt va kredit, korrupsiyaga qarşi kuraş
V. Yuridik va pedagogik yönalişlar	Bölajak yuristlar, huquq va tarbiya fanlari öqituvçilari	Huquqiy madaniyatni tarqatuvçi sifatida tayyorlaş: klinika, köça huquqi (Street Law), huquqni öqitiş metodikasi

7.2. A. Sohaga oid huquqiy kompetensiya

- Har bir bakalavriat yönalişi uçun sohaga oid huquqiy mavzular röyxati tuziladi va asosiy mutaxassislik fanlariga kiritiladi. Misol: dasturlaş fanida – litsenziyalar va şaxsiy ma’lumotlarni himoya qiliş, klinik amaliyotda – bemorning roziligi.
- Keyslar soha mutaxassislari va yuristlar bilan birgalikda tayyorlanadi.
- Bitiruv malakaviy işlarida tadqiqot obyektining huquqiy jihatlarini qisqa tahlil qiliş tavsiya etiladi.

7.3. B. Akademik muhit va talaba huquqlari

- Birinçi kurs uçun moslaşuv moduli (4–6 soat): talabaning huquq va burçlari, bahoga apellyatsiya, kontrakt şartlari, korrupsiya holati haqida qayerga murojaat qiliş.
- Akademik xolislik: plagiat, sun’iy intellekt (SI) vositalaridan halol foydalaniş, iqtibos qoidalari amaliy topşiriqlar orqali örganiladi.
- Tyutorlar uçun talabalar turar joyidagi nizolar, ijara şartnomasi, onlayn firibgarlik va kredit böyiça qisqa maslahat kartalari tayyorlanadi.
- Oliy ta’lim taşkilotlari içki normalari (nizomlar, tartib qoidalari) talabalar uçun tuşunarli tilda qisqa şaklda joylaştiriladi.

7.4. V. Yuridik va pedagogik yönalişlar

Yuridik klinika. Yuridik yönaliş talabalari öqituvçi nazoratida aholiga bepul birlamçi maslahat beradi. PF-232 bilan 2026/2027 öquv yilidan yuridik universitetda amaliy öqitiş, klinik va dual ta’lim tamoyili tajriba tariqasida joriy etiladi, boşqa yuridik fakultetlar şu tajribani örganişi tavsiya etiladi.

Köça huquqi (Street Law) maşğulot ötkazuvçilari. Yuridik va pedagogik yönaliş talabalari aralaş juftliklarda maktab va texnikumlarda maşğulot ötkazadi: birinçisi mazmunni, ikkinçisi metodikani ta’minlaydi. Bu faoliyat pedagogik amaliyot sifatida hisobga olinişi mumkin. Şu tariqa talabalar maktab va texnikumlarda mentor sifatida “Huquqiy köprik”ni (2.5-band) şakllantiradi.

Bölajak öqituvçilarning huquqiy kompetensiyasi. Pedagogik oliy ta’lim taşkilotlarida barça yönalişlar uçun “Ta’lim sohasida huquq” moduli: bola manfaatlari ustuvorligi, zöravonlik holatida öqituvçining burçi, şaxsiy ma’lumotlar, ota-onalar bilan huquqiy munosabatlar.

Huquqni öqitiş metodikasi. Huquq fani öqituvçilarini tayyorlaşda uşbu qöllanmaning 3-bölimidagi metodlar amaliy maşğulotlarda sinab köriladi.

7.5. Tarbiyaviy işlar

- Talabalarning huquqiy maslahat nuqtasi (klinika bazasida yoki yuriskonsult huzurida).
- Debat klubi va sud musobaqalari – fakultetlararo turnir şaklida.
- Dekabr oyidagi “Huquqiy bilimlar oyligi”da mahallalarda talabalar iştirokida oçiq uçraşuvlar.
- Korrupsiya holatlari haqida anonim xabar beriş kanali va uning natijalari böyiça yillik oçiq hisobot.
- Talabalar iştirokida OTT içki normalarining huquqiy auditi (8.4-band).

7.6. Baholaş

Reyting bahosida amaliy natijalar hisobga olinadi: klinikada körilgan murojaatlar, Köça huquqi (Street Law) maşğulotlari, musobaqa natijalari, sohaga oid huquqiy tahlil. Portfolio baholaş şakli tavsiya etiladi.

◆ **ILĞOR TAJRIBA**

Milliy tajriba. PF-232-son Farmonga köra 2026/2027 öquv yilidan yuridik universitetda amaliy öqitiş, klinik va dual ta’lim tamoyili tajriba tariqasida joriy etiladi (7.4-band).

Xorijiy tajriba. AQŞ va Yevropaning köplab universitetlarida yuridik klinikalar işlaydi: talabalar öqituvçi nazorati ostida aholiga bepul birlamçi huquqiy yordam körsatadi. Street Law dasturi ham Jorjdtaun universitetida yuridik klinika sifatida amalga oşiriladi. Özimizda moslaştiriş: yuridik klinika va Köça huquqi maşğulot ötkazuvçilari (7.4-band).

★ **YODDA TUTING**

- OTTda huquqiy ta’lim uç yönalişda boradi: sohaga oid kompetensiya, akademik muhit va talaba huquqlari, yuridik va pedagogik yönalişlar;
- talabalar huquqiy madaniyatni tarqatuvçi sifatida tayyorlanadi: klinika, Köça huquqi, “Huquqiy köprik”;
- akademik xolislik va sun’iy intellektdan halol foydalaniş amaliy topşiriqlar orqali örganiladi.

SVR6417

8. Tarbiyaviy va taşqi hamkorlik işlari, raqamli resurslar

8.1. Hamkorlik doirasi

Hamkor	Hamkorlik şakli
Adliya organlari	Oçiq darslar, Köça huquqi (Street Law) loyihasi, “Mahalla yuristi” bilan aloqa, huquq fani öqituvçilarini metodik qöllab-quvvatlaş
Sudlar, prokuratura, içki işlar organlari	Sayohatlar (oçiq sud majlisiga kuzatuvçi sifatida), öquv sudlariga baholovçi, profilaktika suhbatlari
Advokatura va notariat	Kasbga yönaltiriş, keyslar tayyorlaşda yordam
Mahalla va oila	Ota-onalar uçun huquqiy daqiqalar, ta’lim oluvçilar loyihalarini mahallada taqdim qiliş
Yoşlar işlari agentligi	“Intellektual marafon”, “Yoşlar va qonun” tanlovi, huquqiy immunitet dasturi
Oliy ta’lim taşkilotlari (yuridik va pedagogik)	Köça huquqi (Street Law) maşğulot ötkazuvçilari, mentorlik, metodik maslahat

Muhim çegara. Huquqni muhofaza qiluvçi organ xodimlari bilan uçraşuvlar qörqitişga emas, huquqiy tuşuntirişga yönaltiriladi. Aniq ta’lim oluvçilarning huquqbuzarlik holatlari ommaviy muhokama qilinmaydi.

8.2. Yillik tadbirlar taqvimi (namuna)

Oy	Tadbir	Qamrov
Sentyabr	Içki tartib qoidalarini muhokama qiliş, talabalar uçun moslaşuv moduli, “Yoşlar va qonun” tanlovi	Barça bosqiçlar
Oktyabr	Raqamli xavfsizlik haftasi, bolahuquqlari.uz resurslari bilan işlaş	Maktab, litsey
Noyabr	“Qonun oldida hamma teng” inşolar tanlovi	Maktab
Dekabr	Huquqiy bilimlar oyligi, 1–7-dekabr – Konstitutsiya darslari va olimpiadalar, 10-dekabr – Inson huquqlari kuni	Barça bosqiçlar
Yanvar–fevral	Öquv sud jarayonlari va debat turnirlari	Maktab 8–11, litsey, OTT
Mart	Loyihalar taqdimoti (huquqiy infografika, videorolik)	Barça bosqiçlar
Aprel	Mehnat huquqi va mehnat muhofazasi haftasi	Texnikum, OTT
May	Monitoring sörovi va yillik tahlil (10-bölim)	Barça bosqiçlar
Çorakda bir	Köça huquqi (Street Law) maşğulotlari	Maktab, litsey, texnikum

SVR6417

8.3. Raqamli resurslar

Resurs	Foydalaniş
lex.uz	Normativ hujjatlarning rasmiy matni, keyslarda norma topiş maşqi
bolahuquqlari.uz	Bolalar uçun interfaol huquqiy öyinlar va animatsion videolar (1–9-sinflar)
advice.uz	Bepul huquqiy maslahat namunalari, amaliy savol-javoblar
my.gov.uz	Raqamli davlat xizmatlaridan foydalaniş maşğulotlari (10–11-sinf, texnikum)
Huquqiy videoroliklar (202-son qaror doirasida tayyorlanayotgan)	Sinf soatlari

Internetdagi norasmiy huquqiy materiallar (bloglar, ijtimoiy tarmoqlar) darsda faqat tahlil obyekti sifatida işlatiladi: ta’lim oluvçi uni rasmiy manba bilan soliştirib tekşiradi.

8.4. Ta’lim oluvçini faol iştirokçiga aylantiruvçi şakllar

Muassasaning huquqiy auditi. Ta’lim oluvçilar öz muassasasining içki tartib qoidalarini Konstitutsiya va Ta’lim töğrisidagi Qonunga muvofiqligi nuqtai nazaridan örganadi va ta’lim oluvçilar kengaşiga asoslangan takliflar beradi. Audit 8-sinfdan boşlab öqituvçi va muassasa yuriskonsulti rahbarligida ötkaziladi; xulosalar tavsiyanoma şaklida böladi, qarorni muassasa rahbariyati va pedagogik kengaş qabul qiladi.

Kutilayotgan natija: “muassasa muhiti – namuna” tamoyili amalda röyobga çiqadi.

Huquqiy kvest. “Dökon”, “Internet”, “Sinf” kabi bekatlardan iborat öyin: har bir topşiriq töğri norma va harakat yöli topilgandagina “oçiladi” va keyingi bekatga ötiş imkonini beradi. Har bir bekatda hayotiy vaziyat va rasmiy manba (lex.uz) bilan işlaş topşiriği bölişi lozim.

Kutilayotgan natija: geymifikatsiya aniq ssenariy bilan töldiriladi.

60 soniyada huquq. Litsey öquvçilari va OTT talabalari tengdoşlari uçun qisqa video yoki podkast tayyorlaydi: bitta vaziyat – bitta norma – bitta maslahat. Tayyor material öqituvçi va yurist tomonidan huquqiy töğriligi böyiça tekşiriladi.

Kutilayotgan natija: tengdoşlar ta’siri işga solinadi, 202-son qaror doirasida tayyorlanayotgan videoroliklar bilan boğlanadi.

8.5. Zamonaviy raqamli muhitga moslaşiş

Sun’iy intellekt va huquq. Ta’lim oluvçilar SI çat-botiga huquqiy savol beradi va javobni lex.uz dagi amaldagi norma bilan soliştiradi. Maşğulotga dipfeyk, SI yordamidagi firibgarlik va şaxsiy ma’lumotlar mavzusidagi keyslar qöşiladi. Çat-botga özining va boşqalarning şaxsiy ma’lumotlari (pasport, bank kartasi, manzil) kiritilmaydi; vositaning yoş çegaralariga rioya qilinadi.

Kutilayotgan natija: huquqiy ma’lumotga tanqidiy yondaşuv şakllanadi.

QR-kodlar va raqamli metodik bank. Har bir dars işlanmasi va keysga videodars, tarqatma material va onlayn testga olib boruvçi QR-kod joylaştiriladi (ilovalarda körsatilgan). QR-kod faqat muassasa yoki vakolatli taşkilotning rasmiy platformasiga yönaltiradi; har bir material yurist

SVR6417

tomonidan körib çiqilgan, versiyasi va yangilangan sanasi körsatilgan böladi; internet imkoni bölmaganda bosma nusxa yoki muassasa kompyuter xonasidan foydalaniladi.

Kutilayotgan natija: bosma naşr interfaol resursga aylanadi.

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - hamkorlik tuşuntiriş uçun, qörqitiş uçun emas;
> - aniq ta’lim oluvçilarning huquqbuzarlik holatlari ommaviy muhokama qilinmaydi;
> - norasmiy internet-materiallar faqat tahlil obyekti va rasmiy manbadan tekşiriladi;
> - QR-kodlar bosma naşrni interfaol resursga aylantiradi, lekin darsning örnini bosmaydi.

SVR6417

9. Pedagog kadrlar tayyorgarligi

Metodlarning samarasi öqituvçining özіga boğliq. Huquqiy ta’limda uç guruh pedagog iştirok etadi va har biriga alohida tayyorgarlik kerak.

Guruh	Muammolar	Tavsiya etiladigan tayyorgarlik
Huquq va tarbiya fanlari öqituvçilari	Interfaol metodlarda tajriba kam, qonunçilik özgarişlaridan orqada qoliş	36 soatlik amaliy modul: 3-bölimdagi har bir metod treningda sinab köriladi, yarim yilda bir marta qonunçilik böyiça qisqa vebinar
Yuridik ma’lumotli, maktabda işlaydigan yangi öqituvçilar (PF-232)	Huquqiy bilim bor, pedagogik va yoş psixologiyasi bilimi kam	Qisqa pedagogik modul (darsni rejalaştiriş, sinfni boşqariş, baholaş) va tajribali öqituvçi mentorligi
Sinf rahbarlari, kuratorlar, tyutorlar, psixologlar va boşqa fan öqituvçilari	Bola huquqlari va öz huquqiy mas’uliyatini çekli biliş	8 soatlik modul: bola manfaatlari ustuvorligi, zöravonlik belgilari va xabar beriş tartibi, şaxsiy ma’lumotlar, mediatsiya asoslari

9.1. Tayyorgarlik şakllari

Muassasa içidagi tayyorgarlik. Maktablarda “Kasbiy rivojlaniş soati” va “Kasbiy rivojlaniş kuni” doirasida ijtimoiy fanlar öqituvçilari oçiq dars va dars kuzatuv ötkazadi.

Metodik birlaşmalar. Tuman va şahar darajasida çorakda bir marta keys va dars işlanmalari almaşinuvi.

Raqamli metodik bank. Dars işlanmalari, keyslar va videodarslar bitta oçiq bazada joylaştiriladi, har bir material çop etilişdan oldin huquqiy töğriligi böyiça yurist tomonidan körib çiqiladi.

Namunaviy maşğulotlar videoyozuvi. 1-ilovadagi har bir dars işlanmasi böyiça namunaviy maşğulotning qisqa (15–20 daqiqalik) videoyozuvi tayyorlanib, raqamli metodik bankka joylaştiriladi va QR-kod orqali oçiladi. Videoga olişda ta’lim oluvçilarning (voyaga yetmaganlar uçun – ota-onalarning) yozma roziligi olinadi, şaxsiy ma’lumotlar himoyasi ta’minlanadi.

Texnikumlarda huquqiy ta’lim faqat huquq fani öqituvçisining vazifasi emas: maxsus fan öqituvçilari, işlab çiqariş ta’limi ustalari va guruh rahbarlari ham iştirok etadi. Şu bois texnikumda huquq va maxsus fan öqituvçilaridan iborat metodik birlaşma yoki işçi guruh tuziladi; har bir yönaliş böyiça kasbiy-huquqiy keyslardan iborat “keys-bank” şakllantirilib, har yili yangilanadi; malaka oşiriş kurslariga “Kasbiy faoliyatda huquqiy ta’lim metodikasi” moduli kiritiladi; normativ hujjatlardagi özgarişlar böyiça har çorakda qisqa seminar ötkaziladi.

9.2. Öqituvçining huquqiy namunasi

Huquqiy tarbiyaning eng kuçli vositasi – öqituvçining öz xatti-harakati: adolatli va asoslangan baho, ta’lim oluvçi şa’niga hurmat, şaxsiy ma’lumotlarni maxfiy saqlaş, sovğa va norasmiy tölovlardan voz keçiş.

9.3. Pedagog uçun öz-özini baholaş çek-listi

Öqituvçi huquqiy ta’lim maşğulotidan keyin özini quyidagi 10 savol böyiça tekşiradi (“ha” – 1 ball, “qisman” – 0,5 ball, “yöq” – 0 ball):

1. Dars maqsadini “nimani biladi?” emas, “aniq vaziyatda nima qila oladi?” şaklida belgiladimmi?
2. Keys ta’lim oluvçining yoşi va hayotiga mosmi, unda haqiqiy şaxslar va ta’lim oluvçilarning şaxsiy holatlari yöqmi?
3. Darsda kamida bitta faol metod (keys, debat, rolli öyin va boşqalar) qöllanildimi, ma’ruza qismi qisqa böldimi?
4. Norma rasmiy manbadan (lex.uz) tekşirilib, amaldagi tahririda keltirildimi?
5. Rolli öyin va simulyatsiyadan keyin “roldan çiqiş” va tahlil bosqiçi ötkazildimi?
6. Baholaş mezonlari dars boşida aytildimi, rubrika qöllanildimi?
7. Alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun material moslaştirildimi (2.6-band)?
8. Zöravonlik va jinoyat alomatlari bölgan holatlar hamda şaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi çegaralariga rioya qilindimi?
9. Adolatli baho, hurmat va maxfiylik borasida özim namuna böldimmi (9.2-band)?
10. Darsdan keyin ta’lim oluvçilardan teskari aloqa (qisqa sörov, refleksiya) olinib, keyingi rejada hisobga olinadimi?

Jami 8–10 ball – amaliyot barqaror; 5–7,5 ball – qisman, 3-bölimdagi metodlar böyiça qöşimça tayyorgarlik tavsiya etiladi; 5 balldan kam – malaka oşiriş moduliga (9-bölimdagi jadval) murojaat qiliş tavsiya etiladi. Çek-list malaka oşiriş kurslari uçun tayyor öquv materiali sifatida ham işlatilişi mumkin.

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - metodning samarasi öqituvçiga boğliq: uç guruh pedagog uçun alohida tayyorgarlik talab etiladi;
> - öqituvçining öz xatti-harakati huquqiy tarbiyaning eng kuçli vositasidir;
> - 10 savolli öz-özini baholaş çek-listi (9.3-band) malaka oşiriş uçun ham işlatiladi.

SVR6417

10. Samaradorlikni baholaş va monitoring

Samaradorlik tadbirlar soni bilan emas, ta’lim oluvçilarning bilimi, könikmasi va xatti-harakatidagi özgarişlar bilan ölçanadi.

10.1. Körsatkiçlar

Daraja	Körsatkiç	Manba	Muddat
Bilim	Diagnostik test natijasi (yil boşi va oxiri)	20 savolli bosqiçga mos test	Sentyabr, may
Könikma	Vaziyatli topşiriqni yetarli darajada bajarganlar uluşi	3-ilovadagi rubrika	Çorak/ semestr
Munosabat	Qonunga işonç va huquqiy faollik indeksi	4-ilovadagi anonim sörovnoma	Yil boşi va oxiri
Xatti-harakat	Voyaga yetmaganlar orasidagi huquqbuzarliklar, bulling va intizom holatlari soni	Muassasa va içki işlar organlari ma’lumoti	Yillik
Muhit	Nizolarning mediatsiya orqali hal qilingan uluşi, murojaatlarga muddatida javob uluşi	Muassasa jurnali	Çorak
Pedagoglar	Interfaol metodlar qöllanilgan darslar uluşi, moduldan ötgan öqituvçilar uluşi	Dars kuzatuv varaqasi, malaka oşiriş ma’lumoti	Semestr

10.2. Maqsadli qiymatlar (tavsiya sifatida, 2027-yil oxirigaça)

- Diagnostik test örtaça natijasi yil boşiga nisbatan kamida 15 foiz punktga oşadi.
- Vaziyatli topşiriqni yetarli darajada bajarganlar uluşi – kamida 70 foiz.
- Huquq fanlaridagi darslarning kamida 50 foizida interfaol metod qöllaniladi.

Raqamlar taxminiy va birinçi yildagi diagnostika natijasidan keyin aniqlaştiriladi.

10.3. Monitoring tartibi

- Muassasa darajasida ma’naviy-ma’rifiy işlar böyiça örinbosar yiliga ikki marta qisqa hisobot tayyorlaydi (1 bet, 10.1 körsatkiçlari böyiça).
- Hududiy ta’lim boşqarmalari muassasa hisobotlarini umumlaştirib, ilğor tajriba va kamçiliklarni ajratadi.
- Sörovnomalar anonim ötkaziladi. Voyaga yetmaganlar haqidagi ma’lumotlar faqat umumlaştirilgan şaklda işlatiladi.

> ★ **YODDA TUTING**
>
> - samaradorlik tadbirlar soni bilan emas, ta’lim oluvçilarning bilimi, könikmasi va xatti-harakatidagi özgarişlar bilan ölçanadi;
> - maqsadli qiymatlar tavsiyaviy bölib, birinçi yil diagnostikasidan keyin aniqlaştiriladi;
> - sörovnomalar anonim ötkaziladi, voyaga yetmaganlar haqidagi ma’lumot faqat umumlaştirilgan şaklda işlatiladi.

Xulosa

Uşbu uslubiy qöllanma ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyani kompetensiyaviy, faoliyatli va tajribaga asoslangan yondaşuvlar asosida taşkil etişning yaxlit tizimini taklif etadi. Qöllanmaning asosiy ğoyalari – bilimni haqiqiy natijaga aylantiriş, maktabdan oliy ta’lim taşkilotigaça uzluksizlik hamda dars va tarbiya birligi – bosqiçlar böyiça kompetensiyalar jadvali, ilğor metodlar, bosqiçlarga xos tavsiyalar va tayyor ilovalar orqali amaliy tus olgan.

Qöllanmaning qöşimça imkoniyatlari: “Huquqiy pasport” va “Huquqiy köprik” orqali uzluksizlikning taşkiliy mustahkamlanişi; alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun moslaştiriş yöllari; ijodiy va raqamli vositalar (huquqiy audit, kvest, “60 soniyada huquq”, sun’iy intellekt va huquq, QR-kodlar); samaradorlikni baholaş va monitoring tartibi.

Qöllanmadan foydalaniş ta’lim oluvçilarning qonunni bilişdan hayotiy vaziyatda qonuniy va mas’uliyatli harakat qilişga ötişiga, muassasa muhitining huquqiy madaniyat namunasiga aylanişiga hamda pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi oşişiga xizmat qiladi. Qöllanmani amaliyotda qöllaş natijalari va qonunçilik özgarişlariga muvofiq muntazam takomillaştirib boriş maqsadga muvofiqdir.

SVR6417

Ilovalar

1-ilova. Dars işlanmalari namunalari

1.1. Maktab, 6-sinf. Bulling: hazil qayerda tugaydi? (45 daq.)

Maqsad: öquvçi bullingni taniydi, uning zararini tuşunadi va qayerdan yordam söraşni biladi.

Bosqiç	Vaqt	Faoliyat
Kiriş	5 daq.	Qisqa sahna (öqituvçi öqiydi): sinfdoşlar bir öquvçi ustidan kulib, rasmini guruhga tarqatadi
Tahlil	12 daq.	Guruhlarda: kim zarar kördi? kim nima qildi? kuzatuvçilarning roli qanday?
Norma	8 daq.	Bolaning şa’ni va şaxsiy ma’lumoti himoyasi haqida oddiy tilda tuşuntiriş, rasmni ruxsatsiz tarqatiş ham zararli xatti-harakat ekani
Rolli öyin	12 daq.	“Nima deyman?”: kuzatuvçi öquvçi sifatida bullingni töxtatiş va yordam söraş uçun 3 iborani maşq qiliş
Xulosa	8 daq.	Sinf birgalikda “Bizning sinfda bullingga yöl yöq” kelişuvini yozadi, yordam söraş mumkin bölgan kattalar röyxati (sinf rahbari, psixolog, ota-ona)

Eslatma. Agar darsdan keyin biror öquvçi özi bulling qurboni ekanini aytsa, öqituvçi muassasadagi belgilangan tartib böyiça darhol psixologga xabar beradi va holatni sinfda muhokama qilmaydi.

QR

QR-kod örni
1.1-işlanmaning elektron şakli, videodars, tarqatma material va onlayn test.

1.2. Akademik litsey yoki 10–11-sinf. Öquv sudi: “Sifatsiz smartfon” (2 dars)

Fabula. Xaridor onlayn dökondan smartfon sotib oldi. Hafta ötib ekranda nuqson çiqdi. Sotuvçi “tuşirib yubordingiz” deb tovarni almaştirişdan boş tortadi.

Rollar: sudya, da’vogar va uning vakili, javobgar (dökon) va uning vakili, ekspert, ikki guvoh, kuzatuvçilar guruhi (keyin tahlil beradi).

1-dars (tayyorgarlik): Iste’molçilar huquqlarini himoya qiliş töğrisidagi qonunçilikni lex.uz dan topiş, har rol uçun bir sahifali pozitsiya tayyorlaş.

2-dars (jarayon): oçiliş (3 daq.), taraflar çiqişi (2×4 daq.), guvoh va ekspert sörovi (10 daq.), yakuniy söz (2×2 daq.), sud qarori va asosi (5 daq.), roldan çiqiş va kuzatuvçilar tahlili (12 daq.).

Uy vazifasi: dökonga yozma da’vo loyihasini tayyorlaş.

QR

QR-kod örni
1.2-işlanmaning elektron şakli, rollar kartoçkalari va onlayn test.

1.3. Texnikum. Şartnoma ustaxonasi: birinçi iş joyim (80 daq.)

Bosqiç	Vaqt	Faoliyat
Muammo	10 daq.	“Ikki oy işladim, şartnoma yöq, maoş tölanmadi” – talabalar oqibatlarni sanaydi
Hujjat bilan işlaş	25 daq.	Har bir guruhga ataylab 5 ta xato kiritilgan mehnat şartnomasi, mehnat kodeksi bilan soliştirib xatolarni topiş
Taqdimot	15 daq.	Guruhlar topgan xatolarni va tahrirni taqdim qiladi
Rolli öyin	20 daq.	Işga qabul suhbati: talaba şartlarni aniqlaştiradigan savollar beradi
Xulosa	10 daq.	Şartnomada albatta bölişi kerak bölgan 7 ta şart röyxati (çek-list)



QR-kod örni
1.3-işlanmaning elektron şakli, namunaviy mehnat şartnomasi va çek-list.

1.4. Oliy ta’lim taşkiloti (yuridik bölmagan yönaliş). Ijara va onlayn firibgarlik (80 daq.)

- **Darsdan oldin:** talabalar 10 daqiqalik video va ijara şartnomasi namunasini örganadi.
- **Darsda:** 3 ta qisqa keys (zakalat qaytarilmadi, onlayn e’londagi uy mavjud emas, uy egasi ogohlantirişsiz çiqarib yubordi) guruhlarda yeçiladi.
- Yurist bilan savol-javob (yuridik klinika talabasi yoki adliya xodimi, 20 daq.).
- **Mahsulot:** talabalar turar joyi uçun “Ijaraga uy olişdan oldin 10 savol” infografikasini tayyorlaydi.

1.5. Moslaştirilgan dars işlanmasi namunasi: 1.1-işlanmaning alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun varianti (maktab, 6-sinf)

1.1-işlanmaning maqsadi va mazmuni saqlanadi, şakli va vaqt taqsimoti moslaştiriladi: darsga 45 daqiqa örniga taxminan 55 daqiqa ajratiladi (qöşimça vaqt ta’lim oluvçining iş sur’atiga qarab taqsimlanadi). Moslaştiriş pedagog-psixolog va zarur hollarda defektolog bilan kelişiladi (2.6-band).

Bosqiç	Moslaştiriş
Kiriş	Sahna matni öqiladi va tört kadrli rasm kartoçkalari bilan körsatiladi; matn qisqa va sodda jumlalarga ajratiladi.
Tahlil	Oçiq savol örniga uçta aniq savol (“Kim zarar kördi?”, “Kim nima qildi?”, “Kim yordam berişi mumkin edi?”); javob rasm tanlaş, “ha/yöq” yoki qisqa jumla orqali beriladi; guruhda yordamçi (tengdoş) tayinlanadi.
Norma	Ikki jumlali eslatma: “Birovning suratini söramay tarqatiş mumkin emas. Bu – birovga zarar”; piktogramma va rasm bilan kuçaytiriladi.
Rolli öyin	Tayyor iborali kartoçkalar: “Töxta. Bu yomon.”, “Men yordam çaqiraman.”, “Bu hazil emas.”; rol ovoz bilan yoki kartoçkani körsatiş orqali bajariladi.
Xulosa	Kelişuv uçta rasmli qoida körinişida tuziladi; yordam söraş mumkin bölgan kattalar (sinf rahbari, psixolog, ota-ona) rasmli varaqada beriladi.

Bosqiç	Moslaştiriş
Baholaş	Oğzaki javob yoki aniq harakat (kartoçkani körsatiş, qoidani tanlaş) böyiça; 3-ilovadagi rubrikaning “Boşlanğiç” va “Yetarli” darajalari mezonlari soddalaştiriladi; natija boşqalar bilan emas, ta’lim oluvçining öz oldingi natijasi bilan taqqoslanadi.

QR

QR-kod örni
moslaştirilgan işlanmaning elektron şakli, rasm kartoçkalari va piktogrammalar.

SVR6417

2-ilova. Keyslar banki (namuna)

№	Bosqiç	Vaziyat	Huquqiy savol
1	1–4	Tanaffusda bir bola boşqasining tuşligini doim olib qöyadi	Begona mulkka hurmat, kimdan yordam söraş kerak?
2	5–7	Sinf guruhida öquvçining surati izohlar bilan tarqatildi	Şa’n va şaxsiy ma’lumot himoyasi, kuzatuvçining javobgarligi
3	8–9	15 yoşli ösmirga onlayn oson daromad taklif qilindi: bank kartasi orqali pul ötkaziş	Firibgarlik va unga şerik böliş xavfi, voyaga yetmaganlar javobgarligi
4	10–11 yoki litsey	18 yoşga tölgan yoş saylov kuni pul tölab ovoz sotib oliş taklifiga duç böldi	Saylov huquqining kafolatlari va javobgarlik
5	Texnikum	Amaliyot joyida talabaga xavfsizlik vositasisiz işlaş buyurildi	Mehnat muhofazasi, işdan boş tortiş huquqi
6	Texnikum	Talaba onlayn çetda iş taklifiga pasport ma’lumotini yubordi	Şaxsiy ma’lumotlar, mehnat migratsiyasidagi firibgarlik
7	Oliy ta’lim taşkiloti	Talabaga imtihonni taşkil qiliş uçun vositaçi taklif qilindi	Korrupsiya alomatlari, qayerga va qanday xabar beriş
8	Oliy ta’lim taşkiloti (pedagogika)	Maktab öquvçisining tanasida kökariş bor va u taşvişli körinadi	Öqituvçining burçi, bola manfaatlari ustuvorligi, xabar beriş tartibi

Texnikumlar uçun qöşimça keyslar (11-sinf bazasidagi guruhlar uçun):

9-keys. “Sinov muddati”. Texnikum bitiruvçisi Jasur korxonaga işga kirdi. Unga “uç oy sinov muddati, bu davrda iş haqi tölanmaydi, şartnoma keyin tuziladi” deyildi. Ikki oydan söng u heç qanday tölovsiz işdan böşatildi. Savollar: iş beruvçi qaysi qoidalarni buzgan? Jasur öz huquqlarini qanday tartibda himoya qilişi mumkin? Bunday vaziyatga tuşmaslik uçun işga kirişda nimalarga e’tibor beriş kerak?

10-keys. “Ijaradagi xona”. Talaba Madina oğzaki kelişuv asosida xona ijaraga oldi va uç oy uçun oldindan töladi. Bir oydan söng uy egasi uni sababsiz çiqarib yubordi va pulni qaytarmadi. Savollar: bu yerda qanday fuqarolik-huquqiy munosabat mavjud? Yozma şartnomaning ahamiyati nimada? Madina nima qilişi mumkin?

Keyslar banki ta’lim bosqiçlari va kasbiy yönalişlar böyiça kengaytirilgan (11–24-keyslar; 9–10-keyslar yuqorida berilgan):

№	Bosqiç yoki yönaliş	Vaziyat	Huquqiy savol
11	1–4	Bola sinfdoşining qalamini söramay olib, sindirib qöydi	Birovning mulkini avaylaş, zararni tuzatiş, keçirim söraş
12	5–7	Onlayn öyinda bola notaniş odamga akkaunt ma’lumotini berdi va öyin içidagi pulini yöqotdi	Şaxsiy ma’lumot xavfsizligi, firibgarlik, kimdan yordam söraş
13	8–9	Döstlar guruhida ösmirlardan biri dökondan arzon narsani olib çiqib ketişni “öyin” sifatida taklif qildi	Voyaga yetmaganlarning javobgarligi, guruh bosimi, huquqbuzarlikdan voz keçiş

№	Bosqiç yoki yönaliş	Vaziyat	Huquqiy savol
14	10–11 yoki litsey	Öquvçining inşosi sun’iy intellekt yordamida yozilgani uçun baholanmadi	Akademik xolislik, SIdan halol foydalaniş, bahoga norozilik bildiriş tartibi
15	Texnikum (tibbiyot)	Amaliyot paytida talaba bemor haqidagi ma’lumotni ijtimoiy tarmoqdagi guruhga yozib yubordi	Tibbiy sir, şaxsiy ma’lumotlar, intizomiy javobgarlik
16	Texnikum (quriliş, sanoat, energetika)	Korxonada baxtsiz hodisa yuz berdi, iş beruvçi uni işlab çiqarişdan taşqarida sodir bölgan deb rasmiylaştirmoqçi	Baxtsiz hodisani rasmiylaştiriş, iş beruvçining javobgarligi, xodim huquqlari
17	Texnikum (axborot texnologiyalari)	Talaba frilanser sifatida veb-sayt yaratdi, buyurtmaçi şartnomasiz undan foydalanib, haq tölamadi	Frilans şartnomasi, mualliflik huquqi, yozma şartnomaning ahamiyati
18	Texnikum (iqtisod, savdo, xizmat körsatiş)	Yoş sotuvçi xaridorga çek bermadi va narx yorliğidagi narxdan qimmat sotdi	Iste’molçi huquqlari, narx va çek töğrisidagi talablar
19	Texnikum (qişloq xöjaligi)	Fermer xöjaligi çiqindilarni ariqqa tökdi, qöşnining ekini zarar kördi	Ekologik javobgarlik, yetkazilgan zararni qoplaş
20	Texnikum (transport)	Yöl hodisasida taksi yölovçisi şikastlandi	Taşuvçi va haydovçining javobgarligi, suğurta, yölovçi huquqlari
21	Texnikum (pedagogika, maktabgaça ta’lim)	Tarbiyaçi tarbiyalanuvçining suratini ota-onasining roziligisiz ijtimoiy tarmoqqa joyladi	Bolaning şaxsiy ma’lumotlari va tasvirini himoya qiliş, ota-ona roziligi
22	OTT (axborot texnologiyalari)	Talaba kurs işida oçiq kodli kutubxonani litsenziya şartlariga rioya qilmay işlatdi	Litsenziya şartlari, intellektual mulk
23	OTT (tibbiyot)	Bemorning roziligisiz tibbiy tekşiruv natijasi uning iş joyiga ma’lum qilindi	Tibbiy sir, şaxsiy ma’lumotlarni oşkor qiliş
24	OTT (yuridik klinika)	Klinika talabasi murojaat qilgan fuqaroga iş natijasi böyiça kafolat berdi	Kasbiy etika, birlamçi maslahat çegaralari, mas’uliyat

Keyslar banki elektron platformada yuritiladi, har yili yangilanadi va yangi keyslar bilan töldirilib boriladi.

QR

QR-kod örni
keyslar bankining elektron şakli (har yili yangilanadi).

Har bir keys böyiça öqituvçi uçun amaldagi norma va namunaviy javob darsdan oldin lex.uz dan tekşiriladi.

3-ilova. Amaliy topşiriqni baholaş rubrikasi

Mezon	Boşlanğiç (1)	Yetarli (2)	Yuqori (3)
Vaziyatni tuşuniş	Faktlarni aralaştiradi	Asosiy faktlarni ajratadi	Huquqiy ahamiyatga ega barça faktlarni ajratadi
Normani topiş	Norma körsatilmagan	Tegişli qonun körsatilgan	Aniq modda va rasmiy manba körsatilgan
Yeçim	Yeçim asoslanmagan	Yeçim töğri, asos qisman	Yeçim töğri, muqobil variantlar ham körib çiqilgan
Amaliy qadam	Qadam körsatilmagan	Qayerga murojaat qiliş körsatilgan	Murojaat matni yoki aniq harakat rejasi tayyor
Qadriyatlar	Boşqa taraf manfaati inobatga olinmagan	Adolat tamoyiliga işora bor	Taraflar huquqi muvozanati asoslangan

Jami 5–15 ball: 5–8 – boşlanğiç, 9–12 – yetarli, 13–15 – yuqori. 1–4-sinflarda rubrika baho uçun emas, kuzatuv uçun işlatiladi.

Alohida ta’lim ehtiyoji bölgan ta’lim oluvçilar uçun mezonlar ta’rifi soddalaştiriladi, baholaş oğzaki javob yoki amaliy harakat böyiça ham amalga oşiriladi (2.6-band).

QR

QR-kod örni
rubrikaning elektron şakli va töldiriş varaqasi.

4-ilova. Huquqiy munosabat sörovnomasi (anonim, 8-sinfdan boşlab)

Har bir fikrga 1 dan (umuman rozi emasman) 5 gaça (töliq roziman) baho bering:

1. Men öz huquqlarimni bilaman.
2. Huquqim buzilsa, qayerga murojaat qilişni bilaman.
3. Qonunlar mening hayotimga tegişli.
4. Qonunni buziş vaziyatdan qat’i nazar, adolatsizlikdir.
5. Biror tengdoşimga nisbatan adolatsizlik bölsa, aralaşaman yoki yordam çaqiraman.
6. Men internetdagi huquqiy ma’lumotning töğriligini tekşira olaman.
7. Muassasamizda qoidalar adolatli qöllaniladi.
8. Huquq darslarida örganganimdan hayotda foydalanganman.

Hisoblaş: 1–3 – bilim va mas’uliyat, 4–5 – qadriyat, 6 – raqamli savodxonlik, 7 – muassasa muhiti, 8 – amaliylik. Indeks – barça javoblarning örtaçasi. Indeks alohida ta’lim oluvçi bahosiga ta’sir qilmaydi, faqat muassasa darajasida tahlil uçun işlatiladi.

QR

QR-kod örni
sörovnomaning anonim onlayn şakli.

SVR6417

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar röyxati

A. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yildagi tahriri).
2. Ta’lim töğrisidagi Qonun (2020-yil 23-sentabr, ÖRQ-637).
3. Bola huquqlarining kafolatlari töğrisidagi Qonun (2008-yil 7-yanvar, ÖRQ-139).
4. Özbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldan kuçga kirgan).
5. Huquqbuzarliklar profilaktikasi töğrisidagi Qonun (2014-yil 14-may, ÖRQ-371).
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltiriş tizimini tubdan takomillaştiriş töğrisida”gi 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni (jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltiriş konsepsiyasi).
7. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillaştirişga doir qöşimça çora-tadbirlar töğrisida”gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni.
8. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qiliş çora-tadbirlari töğrisida”gi 2025-yil 26-noyabrdagi PF-232-son Farmoni.
9. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligini taşkil etiş töğrisida”gi 2026-yil 3-oktabrdagi PF-213-son Farmoni.
10. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ta’lim muassasalarida yuridik ta’limning uzluksiz tizimini joriy etiş hamda voyaga yetmagan yoşlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oşiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarori (maktablarda “Huquqiy sinf” va “maktab – litsey – texnikum – universitet” tizimi).
11. Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 24-apreldagi 202-son qarori.
12. BMTning Bola huquqlari töğrisidagi Konvensiyasi (1989-yil 20-noyabr).

B. Ilmiy-metodik adabiyotlar

1. Arbetman L., McMahon E., O‘Brien E. Street Law: A Course in Practical Law. – Street Law, Inc.; McGraw-Hill Education.
2. Arbetman L. Street Law, Inc.: Context, History and Future // International Journal of Public Legal Education. – 2018. – Vol. 2, No. 1.
3. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Eugene, OR; Alexandria, VA: ISTE; ASCD, 2012.
4. Zehr H. The Little Book of Restorative Justice. – Intercourse, PA: Good Books, 2002.
5. Compass: Manual for Human Rights Education with Young People. – Strasbourg: Council of Europe, 2012.

V. Elektron resurslar

1. lex.uz – Özbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. bolahuquqlari.uz – bolalar uçun interfaol huquqiy resurs.
3. advice.uz – bepul huquqiy maslahat platformasi.
4. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
5. streetlaw.org – Street Law, Inc. rasmiy veb-sayti.

SVR6417